Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

# Postda
# На посту

O‘zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

1930–2025 95 yilligi

2025-yil 8-may
payshanba

№ 19 (4713)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

ФАХРИЙЛАР ҲАЁТИ – ЁШЛАРГА ИБРАТ

## СИНОВЛИ КУНЛАРНИНГ ТИРИК ГУВОҲИ

**Ҳеч шубҳасиз, биз бугунги озод ва эркин ҳаёт учун азиз жонини аямасдан курашган улуғ инсонлар олдида доимо қарздормиз, улар учун бундан буён ҳам барча шароитларни яратиб берамиз.**

**Шавкат МИРЗИЁЕВ,**
**Ўзбекистон Республикаси Президенти.**

**Инсон – азиз, хотира – муқаддас. Иккинчи жаҳон уруши инсоният тарихидаги энг даҳшатли, энг қонли қирғин бўлганди. Оловли жангларда тинчлик ва озодлик учун курашган инсонларни халқимиз қадрлаб, дунёдан ўтганларининг хотирасини абадий ёдда тутади. Қийин даврларнинг кам сонли тирик гувоҳларидан бири – Хўжайли туманида яшовчи меҳнат фронти иштирокчиси Аразтаган ота Какабаевдир.**

*(Давоми 4-бетда).*



## IKKINCHI JAHON URUSHIGA OID RAQAMLAR

*O‘zbekiston Ikkinchi jahon urushi maydonlariga juda katta miqdorda harbiy texnika, qurol-yarog‘, dori-darmon, kiyim-kechak, oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib beradigan muhim tayanch markazlaridan biriga aylangan. Ishlab chiqarish korxonalari harbiy maqsadlarda qayta tashkil etilgan. Jumladan, ko‘p millatli aholimizning fidokorona mehnati bilan o‘sha vaqtda **300** ga yaqin harbiy mahsulot ishlab chiqarilgan. Front hududlaridan yurtimizga **151** ta zavod ko‘chirib keltirilib, qisqa fursatda ishga tushirilgan. Ikkinchi jahon urushi yillaridagi tariximizni o‘rganishda tom ma’noda yangi davr boshlandi.*

*Xususan, 2020-yilga qadar urush boshlangan paytda yurtimiz aholisi **6 mln 551 ming** kishini tashkil etgan va ularning **1,5 mln**ga yaqini urushda ishtirok etgan, deb hisoblanar edi. Jahon arxivlari o‘rganilib, yangi topilgan ma’lumotlar tahlil qilinganda esa O‘zbekistondan **1 mln 951 ming**ga yaqin kishi urushga safarbar etilgani ma’lum bo‘ldi. Bundan tashqari, ilgari **396 ming** nafar O‘zbekiston fuqarosi urushda halok bo‘lgan, deb aytilgan bo‘lsa, aslida bu raqam **538 ming**dan ziyod bo‘lgan, **158 ming**dan ko‘prog‘i bedarak yo‘qolgan.*

*Ilmiy izlanishlar natijasida orden va medallar bilan mukofotlangan O‘zbekiston vakillarining soniga ham oydinlik kiritildi. Ilgari bu ko‘rsatkich **120 ming** deb qayd etilgan bo‘lsa, yangi ma’lumotlarga asosan, Ikkinchi jahon urushida **200 ming**dan ziyod askar va ofitser davlat mukofotlari bilan taqdirlangani aniqlandi. Jumladan, ilgari **280** nafar deb hisoblab kelingan o‘zbekistonlik Sovet Ittifoqi Qahramonlarining soni **301** ta ekani, **70** nafar yurtdoshimiz uchala darajadagi «Shuhrat» ordeniga sazovor bo‘lgani o‘z tasdig‘ini topdi va tarixiy haqiqat yuzaga chiqdi.*

## TAYINLANDILAR



**Podpolkovnik Zokirjon G‘ofurovich Otaxonov –** Andijon viloyati IIB Jamoat xavfsizligi xizmati boshlig‘i o‘rinbosari – Huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmasi boshlig‘i lavozimiga



**Podpolkovnik G‘ayrat Axmadjanovich G‘aniyev –** Namangan viloyati IIB Jamoat xavfsizligi xizmati boshlig‘i o‘rinbosari – Jamoat tartibini saqlash boshqarmasi boshlig‘i lavozimiga

SOHA FIDOYILARI

# BUNI KUTMAGAN EDIM

## – deydi kapitan Bobur Rahmatov

**El-yurt tinchlik-osoyishtaligi va qonun ustuvorligi yo‘lida xizmat qilish har qanday huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimi uchun yuksak sharaf. Ana shunday mas’uliyatli va sharafli vazifani sidqidildan ado etib kelayotganlardan biri Zarafshon shahar IIB huzuridagi Tergov guruhi katta tergovchisi Bobur Rahmatovdir.**



U 2018-yilda IIV Akademiyasini muvaffaqiyatli yakunlab, ilk faoliyatini Zarafshon shahar IIBda surishtiruvchi lavozimidan boshladi. Keyinchalik viloyat Transportda xavfsizlikni ta’minlash boshqarmasi, shuningdek, Konimex tumani IIBda faoliyat ko‘rsatdi.

Bobur Rahmatov tergov jarayonlarini chuqur tahlil, ishonchli dalillar to‘plash asosida olib boradi. Jinoyatga oid ariza va xabarlarni, qabul qilish va ro‘yxatga olish, protsessual tartibda ko‘rib chiqish bo‘yicha yig‘majildlarni mukammal darajada shakllantiradi. Aynan shu jihatlari bilan hamkasblarining hurmatini qozongan.

Tergov harakatlarini olib borish chog‘ida uning inson ruhiyatini yaxshi bilishi juda asqatadi. Xoh jabrlanuvchini, xoh gumon qiluvchini so‘roq qilsin, ularning haq-huquqlari ta’minlanishini nazardan qochirmaydi. Har qanday vaziyatda ham ularning sha’nini hurmat qiladi, xolis bo‘ladi. Chunki o‘zining tergovchi sifatidagi xatti-harakati inson taqdiriga daxldorligini chuqur his etadi.

Uning uchun eng muhimi – haqiqatni aniqlash. Shu boisdan dastlabki tergovni yakunlab, sudga oshirgan jinoyat ishlari qo‘shimcha tergov olib borish uchun qaytarilmagan. Ayniqsa, ko‘p epizodli, murakkab ishlarni tergov qilish asnosida uning tergovchilik mahorati, iqtidori bor bo‘yi bilan namoyon bo‘ladi.

Yaqinda uning xizmat faoliyatida erishgan yutuqlari O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri tomonidan munosib e’tirof etildi. Bobur Rahmatovga muddatidan oldin «mayor» maxsus unvoni berildi.

– Shaxsan vazirimizning qo‘llaridan muddatidan oldin navbatdagi maxsus unvonni olar ekanman, juda hayajonlandim. To‘g‘risi, buni kutmagan edim. Haqiqatan ham o‘z kasbingni sevsang, unda yashaysan. O‘zingni baxshida qilasan. Bu bildirilgan ishonch menga va barcha ustozlarimga berilgan munosib baho bo‘ldi. Faoliyatimiz murakkab va shu bilan birga sharafli hamdir. Yuksak ishonchni oqlash uchun bor bilimim va g‘ayratimni safarbar etaman, – deydi lavhamiz qahramoni.

**Mahliyo XOLOVA,**
**o‘z muxbirimiz.**

*Navoiy viloyati.*

HALOLLIKNI SHIOR QILGAN XODIMLAR

# UCH KARRA XATO

Joriy yilning 23-mart kuni soat taxminan 12:40 larda Mirobod tumani Afrosiyob – Shahrisabz ko‘chalari tutashgan chorrahada «Tracker» rusumli avtoulovning harakati shu hududda xizmat olib borayotgan Toshkent shahar IIBB YHXB YPXB 4-batalyon 1-safarbar guruhi YPX inspektori, safdor Xurshid Mirzayevda shubha uyg‘otadi. Va u haydovchi Mastura Aliyeva (ism-sharifi o‘zgartirildi) jezl va hushtak yordamida to‘xtash ishorasini beradi. Biroq haydovchi xodimning qonuniy talabiga bo‘ysunmasdan, Oybek – Nukus chorrahasi tomon harakatlanib, voqea joyidan yashirinishga urinadi. Shu payt yordamga kelgan Toshkent shahar IIBB YHXB YPXB 4-batalyoni 1-safarbar guruhi YPX inspektori, kichik serjant Ravshan Rahmatov hamda 4-batalyon 1-safarbar guruhi komandiri, kapitan Bekzod Ne’matov tomonidan to‘xtatiladi. Muloqot chog‘ida haydovchining spirtli ichimlik iste’mol qilgani va unda transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi hujjat yo‘qligi ma’lum bo‘ladi.



– Shu joyning o‘zida haydovchiga nisbatan ma’muriy bayonnoma rasmiylashtirildi, – deydi kapitan Bekzod Ne’matov. – Avtomashina Chilonzor tumani Beshyog‘och ko‘chasida joylashgan jarima maydonchasiga joylashtirildi. Keyin haydovchi ulovini jarima maydonidan chiqarib berish, chora ko‘rmaslik uchun 500 AQSH dollari miqdoridagi pulni pora sifatida taklif qildi.

Kapitan Bekzod Ne’matov M. Aliyevaga bu harakati noqonuniyligini, pora berish va olish jinoyat ekanini bir necha bor tushuntirishiga qaramasdan, u o‘z fikridan qaytmaydi. Natijada 3 mln 500 ming so‘m pulni pora sifatida berayotgan vaqtida qo‘lga olindi.

Poytaxtimizning markaziy ko‘chalaridan birida transport vositasini tegishli hujjatlarsiz, spirtli ichimlik iste’mol qilib boshqarishdek qoidabuzarligidan osonlikcha xalos bo‘laman, deb xomxayol qilgan «uddaburon» haydovchi endi qonun oldida javob beradi.

**Gulnoza TURG‘UNBOYEVA,**
**o‘z muxbirimiz.**

*Toshkent shahri.*

BIZ KORRUPSIYAGA QARSHIMIZ

# KASBIGA SADOQATLI SODIQJON

**To'g'ri yo'ldan adashmaslikning sharti – vijdonga qarshi bormaslik, halol yashashni hayot mezoniga aylantirishdir. Ana shu oltin qoidaga rioya qilganlar orzulari ro'yobini ko'rib yashamoqda. Lekin nafsini tarbiya qilmaganlar, to'g'rirog'i, unga qul kimsalar bir kun kelib boshlari devorga urilganida afsus chekmoqda.**



Bugungi maqolamiz qahramoni halollikni hayotining a'moliga aylantirgan, o'z kasbi va burchiga sadoqatli inson – Pop tumani IIB 1-sonli IIB boshlig'i, podpolkovnik Sodiqjon Mo'minjonovdir.

Sodiqjon Pop tumani hududida xizmat olib borayotgan vaqtida shubhali ko'ringan «Nexia-3» rusumli avtomashinani to'xtatadi. Avtomashina ko'zdan kechirilganda, 4 ta jomadonda 148 blok va 149 dona pirotexnika vositalari borligi ma'lum bo'ldi. Podpolkovnik mazkur holat yuzasidan tegishli hujjatlarni rasmiylashtirib, jinoyat ishini qo'zg'atmoqchi bo'lganida, fuqaro M.K. unga pora taklif qiladi. Xodim bu qonunga xilof ekanini harchand tushuntirishga urinmasin, fuqaro o'zini u yoq-bu yoqqa uraverib, porani «qistirish» payida bo'laveradi. To'g'ri tushuntirishlar M.K.ga ta'sir qilmagach, axiyri, qonuniy chora ko'rishga majbur bo'ladi. Tezkor tadbir davomida M.K. 2000 AQSH dollarini pora sifatida berayotgan vaqtda ashyoviy dalillar bilan qo'lga olinadi.

Podpolkovnik S. Mo'minjonov yaqinda yana bir pora berish bilan bog'liq jinoyatni fosh etdi. U Namangan YPX maskanida mas'ul xodimlar bilan birgalikda haydovchi, Farg'ona viloyati Quva tumanida istiqomat qiluvchi S.H.ni do'stlari bilan sayohatga chiqqan paytda jinoyat ustida qo'lga oldi.

Sayohatga otlangan yigit qanday jinoyat sodir etdi ekan, deya hayron bo'layotgandirsiz. Gap shundaki, o'zini shubhali tutgan yigitning cho'ntagidan 3 ta sellofan paketda giyohvandlik moddasi – gashish borligi aniqlandi.

O'zi shundoq ham jinoyat ustida ushlangan yigitning ishni o'z foydasiga hal qilmoqchi bo'lgani hammasidan oshib tushdi. Tezkor tadbir davomida uchar yigit 500 AQSH dollarini S. Mo'minjonovning xizmat xonasida berayotgan paytda qo'lga olindi.

Ichki ishlar organi tizimi imidjini oshirishda o'z kasbiga sadoqatli bo'lgan podpolkovnik Sodiqjon Mo'minjonov singari halol xodimlarning ham alohida hissasi bor, albatta. Uning o'z kasbiga va tizimga dog' tushirmasdan xizmat olib borishidagi faoliyatini yosh xodimlarga ibrat qilib ko'rsatsak arziydi.

**Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,**
**o'z muxbirimiz.**
*Namangan viloyati.*

## TEMUR TUZUKLARI



Har bir shahar va qishloqqa qutlov tayinlasinlarki, sipoh ra'iyatga soqchilik qilsin va kimning biron narsasi o'g'irlansa, buning mas'uliyati uning zimmasida bo'lsin.

* * *

Yo'llarga kuzatuvchi va soqchilar qo'ysinlar, har bir rabotga bir nechta odamni joylashtirsinlarki, yo'llarni kuzatish va saqlash ishlari shularga tegishli bo'lsin. Yo'lovchilar g'aflat bosib mollarini o'g'irlatib qo'ymasliklarining vazifasi ham o'shalarning zimmasida bo'lsin.

AYOL VA JAMIYAT

# XIZMATNI XOLIS QILGAN OLISGA YETAR

Xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ichki ishlar organlarida salkam chorak asrdan buyon turli lavozimlarda xizmat qilib kelayotgan Bekobod tumani IIB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, podpolkovnik Nodira Qosimova ham xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish, ularning huquqiy manfaatlarini ta'minlashga munosib hissasini qo'shib kelmoqda.

– Gender tenglikka erishishda barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish, xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olishda davlat va fuqarolik institutlarining hamkorligini mustahkamlash, oilalardagi ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash yo'lida barchamiz birdek harakat qilmog'imiz lozim, – deydi fidoyi xodima.

Lavhamiz qahramoni xotin-qizlar masalalari borasida tumanda 2019-yildan buyon xizmat qilmoqda. Bugungi kunda u o'z yo'nalishi bo'yicha mahallalardagi holatlarni o'rganib, uni har tomonlama tahlil qilib boradi. Oilaviy sharoiti og'ir, ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlar bilan ko'proq



ishlab, ularning bandligini ta'minlashga ham harakat qiladi. Ehtiyojmandlarga onalarcha, opalarcha mehr ko'rsatib muammolariga quloq tutadi.

Jumladan, o'tgan yili xotin-qizlar uchun 11 marotaba mehnat yarmarkalari o'tkazilib, ulardan 43 nafarining bandligi ta'minlangan, 110 nafari kasb-hunarga o'qitishga yo'naltirilgan. Joriy yilning birinchi choragida esa 6 marotaba mehnat yarmarkalari tashkil etilib, 29 nafar xotin-qiz ish bilan ta'minlangan, 34 nafari kasb-hunarga o'qitishga yo'naltirilgan.

Yana bir e'tiborli jihati shundaki, o'tgan yil yakunlariga ko'ra, tumanda xotin-qizlar o'rtasidagi jinoyatlar soni 2023-yilga qaraganda ikki barobarga kamayishiga erishilgan. Bugungi kunda tuman hududidagi 51 ta mahallaga borilib, ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlarga huquqiy-psixologik va tibbiy yordamlar ko'rsatilmoqda.

Podpolkovnik Nodira Qosimova ikki qizni tarbiyalab voyaga yetkazmoqda. Katta qizi Sevinch Qosimova IIV qoshidagi 2-sonli Toshkent akademik litseyida tahsil olgan. Hozirda IIV Akademiyasida tahsil olishni maqsad qilib astoydil bel bog'lagan. Kichkina qizi Sabohat esa sportning o'zbek jang san'ati turidan musobaqalarda ishtirok etib, sovrindorlar safidan joy olib kelmoqda.

**Abror POYONOV,**
**o'z muxbirimiz.**
*Toshkent viloyati.*

9 МАЙ – ХОТИРА ВА ҚАДРЛАШ КУНИ

# ТИНЧЛИК ҚАЛБИМИЗДАН БОШЛАНАДИ



**«Уруш» жуда қақшатқич, совуқ сўз. Унинг замирида вайронкорлик, ваҳшийлик мужассам. Инсоният яралганидан буён не-не урушларга гувоҳ бўлган. Мислсиз йўқотишлар ва айрилиқ, халқ хотирасидан узоқ вақтга ўчмайдиган совуқ урушлардан бири 1941–1945 йилларда давом этиб, унда 20 миллиондан ортиқ кишининг ёстиғи қуриди.**

Афсуски, Иккинчи жаҳон урушида жафокаш ва фидойи ўзбек халқи ҳам не-не қаҳрамон, мард ўғлонларидан айрилди. Урушга халқимизнинг 1,5 миллиондан зиёд ўғлонлари сафарбар этилган бўлса, 263 000 дан зиёд аскар ҳалок бўлган, 132 670 киши бедарак кетди. 60 452 нафари майиб-мажруҳ бўлди. 10 мингдан ортиқ ўзбекистонлик жангчилар асирга тушган. Бу – фронтга сафарбар қилинган юртдошларимизнинг ҳар уч нафаридан бири уйига қайтмаганини билдиради.

Статистик маълумотларга кўра, Иккинчи жаҳон уруши даврида мамлакатимиз мудофаанинг моддий эҳтиёжини таъминлашда бор кучини аямай сарфлаган. Чунончи, уруш йилларида аҳоли томонидан мудофаа жамғармасига 649,9 млн. сўм нақд пул, 4 млрд. 226 млн. сўм заём пули, 52,9 кило олтин ва кумуш йиғилди.

Армия учун миллионлаб гимнастёрка, пахтали комбинезон, этик ва қўнжли ботинка юборилган. Енгил саноат вазирлиги корхоналари томонидан фронтга миллионлаб метр газлама, тонналаб ғалла, картошка ва сабзавот, полиз маҳсулотлари, қуруқ ва хўл мевалар жўнатишган. Уруш йилларида республикада 280 та янги корхона барпо этилган.

Уруш даҳшатлари оғриқлари неча-неча хонадонларга ғам ва алам олиб келганини ўз кўзимиз билан кўрдик. Отасини йўқотган фарзандлар, боласидан айрилган оналар, ака-укасидан айрилган инсонларнинг қалб изтироблари нақадар оғир бўлганига гувоҳмиз. Бугунги дориламон кунлар ота-боболаримизнинг мардонавор курашлари, қонли жангларда азиз жонлари қурбон бўлгани эвазига қўлга киритилганини англашимиз шарт.

Иккинчи жаҳон уруши қатнашчилари сафимизда жуда оз қоляпти, уларга кўрсатилаётган эҳтиром ва ҳурмат кўлами давлатимиз раҳбари бошчилигида йилдан-йилга кенгайиб бораётгани қалбимизни фахр-ифтихор туйғусига тўлдиради. Инсон хотираси азиз, қадр-қиммати эса муқаддас эканини ёшларимизга ибрат вазифасини ўтайди. Келажак авлод эса ана шундай қадриятларимизни асраб-авайлашни бугундан ўрганади. Шунинг учун ҳам ёшларимизни миллий ва инсоний қадриятларимизга ҳурмат руҳида тарбиялаётганимиз кўнгилга таскин беради.

Бугун инсоният олдида ўтмишдаги урушдан ҳам кўра хавфлироқ муаммолар кўндаланг турганини ҳис қилишимиз ҳам даркор. Ахборот асрида сиёсий ва мафкуравий ахборотлар уруши ёшлар онгини заҳарламоқда. Ёт ғоялар таъсири, бир тўда қора кучларнинг ҳокимият учун курашлари қурбони бўлмаслигимиз ҳам керакки, буни енгиш учун илм-маърифат билан қуролланишимиз шарт. Ана шундагина биз ўз олдимизга қўйган мақсадларимизга эриша оламиз.







**Рузмат ДАДАЖАНОВ,**
**Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети доценти.**

ФАХРИЙЛАР ҲАЁТИ – ЁШЛАРГА ИБРАТ

# СИНОВЛИ КУНЛАРНИНГ ТИРИК ГУВОҲИ

*(Давоми. Бошланиши 1-бетда.)*

Яқинда Қорақалпоғистон Республикаси Ички ишлар вазирининг маслаҳатчиси, истеъфодаги полковник О.Турдақов, Фахрийлар кенгаши раиси, истеъфодаги полковник Ф.Санкибаев, Ўзбекистон жангчи-фахрийлар ва ногиронлар бирлашмаси Қорақалпоғистон бўлими раиси Ю.Алламбеков, Хўжайли тумани Мудофаа ишлари бўлими Фахрийлар кенгаши раиси У.Нуржановлар 9 май – Хотира ва қадрлаш куни олдидан меҳнат фронти қатнашчиси А. Какабаевнинг ҳолидан хабар олиш мақсадида хонадонига боришди. Жорий йилда 100 ёшни қарши олаётган отахоннинг шаҳдам ҳаракатлари, саволларга берган дадил жавоблари келган меҳмонларни ҳайрон қолдиргани бор гап.

1925 йилда таваллуд топган А. Какабаев Хўжайли туманининг «Кулаб» овул фуқаролар йиғини ҳудудида яшарди. Оилада икки ўғил, икки қиз бўлиб, отаси эрта вафот этгани боис, уларни тарбиялаб вояга етказиш ёлғиз она Тозагул опанинг зиммасида қолади. Оиладаги етишмовчилик туфайли ёш болаларнинг ўзлари ҳам онасига қўшилиб, ишлашга мажбур бўлади. Айни ёшлик даври бошланганида эса машъум уруш хабари тарқалиб, элдаги ёши етганлар урушга жалб қилинади. Шулар қаторида Аразтаган отанинг акалари Суйинбай ва Есен Омонқуловлар ҳам фронтга кетади. Лекин урушдан қайтиб келмайди.

А.Какабаев эса қишлоқ хўжалиги билан боғлиқ ишлар тўлиқ зиммасига тушганлардан бири бўлди. Кейинчалик механизаторлик касбини ўрганиб, уруш тугагунча ариқларни қазиш, ер ҳайдаш, ҳосил йиғиш, умуман олганда, уруш даврининг қандай қийин заҳматлари бўлса, барчасини тотиб кўради.

– Бир томондан, урушдан келаётган қайғули хабарлар, бошқа томондан, оғир меҳнат одамни толиқтириши турган гап. Лекин «Ҳамма нарса фронт учун, ҳамма нарса ғалаба учун» шиори остида кўпчилик жипслашиб, меҳнатимиз орқали ғалабага ҳисса қўшиш мумкинлигини яхши англаб етганмиз. У пайтдаги ёш авлод учун қанчалик қийин бўлганини ҳис этиш осон эмас. Тўғриси, тўйиб овқат ейиш, тинч ухлаш армонга айланган замон эди. Илоҳим, ундай кунлар ҳеч қачон қайтиб келмасин, – дейди Аразтаган ота.

Унинг меҳнатлари муносиб баҳоланиб, уруш пайтда бир неча бор фахрий ёрлиқлар билан тақдирланади. Бундан ташқари, «Меҳнат шуҳрати» ордени, Иккинчи жаҳон урушининг 50 йиллиги ва 75 йиллиги медаллари, 1976 йили «Қорақалпоғистонда хизмат кўрсатган механизатор» унвони, 1994 йилда эса «Шуҳрат» медали билан тақдирланади.

Рафиқаси Халбиби Авезова билан биргаликда 3 ўғил ва 5 нафар қизни тарбиялаб вояга етказади. Лекин тақдир экан, турмуш ўртоғи 1994 йили вафот этади. Фарзандлари жамиятимизнинг турли соҳаларида хизмат қилиб, бугунги кунда уларнинг барчаси пенсияда. Ҳозирда бу катта оилада 26 нафар набира ва 40 га яқин эваралар ўсиб келаётир.

**Азамат ПИРНИЯЗОВ,**
**ўз мухбиримиз.**
*Қорақалпоғистон Республикаси.*

9 Мая — День памяти и почестей

# НЕСЛОМЛЕННАЯ ДУХОМ

**Валентина Филипповна Инамджанова родилась 25 декабря 1926 года в России. Ее юность пришлась на суровые годы Второй мировой войны. В пятнадцать лет она встала в ряды тружеников тыла, ковавших победу.**

Трудовая биография героини очерка началась на судостроительном заводе в Тамбове. Представьте себе хрупкую девушку, ежедневно, без устали, превозмогая голод и холод, работающую ради общей цели – приблизить долгожданный мир...



После войны судьба привела Валентину в Москву, к сестре. Там она встретила свою любовь – Дадаша Инамджанова, военного, ставшего ее спутником жизни. Вскоре после свадьбы молодая семья переехала в солнечный Ташкент, где Дадаш продолжил службу в Караульных войсках, пройдя путь до звания полковника.

В Ташкенте Валентина Филипповна продолжала трудиться. Вместе с супругом они создали крепкую семью, вырастили трех сыновей. Сегодня радость и гордость Валентины Филипповны – трое внуков и четверо правнуков.

Деятельность Валентины Филипповны отмечена многочисленными медалями и наградами, свидетельствующими о ее самоотверженном труде в военные и послевоенные годы. Ветераны трудового фронта, такие как Валентина Филипповна, наравне с солдатами на передовой, внесли неоценимый вклад в разгром фашизма, неустанным трудом обеспечивая армию всем необходимым и приближая долгожданный мир. Их подвиг навсегда останется в наших сердцах как символ стойкости и безграничной преданности Родине.

**Соб. корр.**

Пресс-тур



# ОТКРЫТОСТЬ И ПРОЗРАЧНОСТЬ

**Управление миграции и оформления гражданства Министерства внутренних дел Республики Каракалпакстан провело пресс-тур для представителей средств массовой информации. Журналисты и блогеры получили возможность ознакомиться с деятельностью управления.**

Одним из ключевых вопросов, поднятых на мероприятии, стала тема внедрения ID-карт. Согласно указу Президента от 22 сентября 2020 года, с января 2021 года в стране введен порядок замены биометрических паспортов старого образца на идентификационные ID-карты. За прошедшее время в Республике Каракалпакстан такие документы получили более 65 тысяч граждан.

Кроме того, на основании постановления Президента была налажена выдача паспортов для выезда за границу. С начала текущего года подобные паспорта оформлены более 13 тысячам граждан. Также, согласно специальному указу, гражданство Республики Узбекистан получили 72 лица, постоянно проживающие на территории страны.

Особое внимание уделено нововведениям в оказании государственных услуг. Теперь граждане могут оформить паспорт, не покидая место жительства, за дополнительную плату. Для социально уязвимых слоев населения предусмотрено бесплатное оформление гражданского паспорта.



– В системе внутренних дел реализуются масштабные реформы, направленные на повышение качества услуг и устранение бюрократических барьеров. Внедрение информационно-коммуникационных технологий позволяет экономить время и средства граждан. Важно своевременно информировать соотечественников о нововведениях, поэтому мы организовали данный пресс-тур, – отметил начальник управления майор Шавкат Тураев.

Участники пресс-тура получили исчерпывающие ответы на все вопросы и отметили значимость подобных мероприятий для повышения информационной открытости органов внутренних дел.

**Азамат ПИРНИЯЗОВ,**
**соб. корр.**
*Республика Каракалпакстан.*

Наманганская область

# МОТИВАЦИЯ ВЛИЯЕТ НА РЕЗУЛЬТАТ

**Моральный настрой определяет коэффициент полезного действия работника. Это особенно важно в профессиях, сопряженных со стрессами, требующими большой концентрации. Поэтому в системе органов внутренних дел учреждена служба психологического обеспечения.**

Согласно приказу сотрудники, несущие службу в территориальных подразделениях УВД области, проходят психологическое тестирование. Недавно тестирование проведено среди сотрудников Чустского и Туракурганского РОВД.



По их результатам даны индивидуальные и коллективные рекомендации, проводятся когнитивные терапии. Особое внимание уделяется состоянию здоровья, наличию проблем служебного и семейно-бытового характера.

В рамках терапии у сотрудников вырабатывается мотивация, помогающая не только в работе, но и в выстраивании отношений с сослуживцами, родными и близкими. Кроме того, мотивация полезна для определения приоритетов, целевых ориентиров.

Психологическая поддержка снимает стресс и укрепляет чувство уверенности. Она особенно важна для сотрудников, только начавших службу.

**Хасанхужа ФАТТОХХОНОВ,**
**лейтенант.**

NUQTAYI NAZAR

# ELEKTRON SIGARETALARNING zarari kamroq(mi)



**Tamaki mahsulotlari, jumladan, sigaretaning inson salomatligiga jiddiy zarar ekani barchamizga ma'lum. Hozirgi kunga kelib, dunyo miqyosida chekuvchilar soni tobora ortib bormoqda. Zamonaviy tibbiyot natijalariga suyangan holda shuni aniq aytish mumkinki, tamaki tarkibida yigirmadan ortiq zaharli moddalar mavjud bo'lib, ular ichida eng zaharlisi nikotindir.**

Nikotin tutun orqali o'pkaga, keyin esa qonga so'rilib, yurak-qon tomir tizimiga salbiy ta'sir etadi. Qon tomirlari torayib, bosim oshadi. Yurak urishi tezlashadi. Bu holat yurak muskullarining ishdan chiqishiga sabab bo'ladi. Bu hol tez-tez takrorlanavergach, yurak infarkti, stenokardiya kabi kasalliklar boshlanishi mumkin. Ma'lumotlarga qaraganda, chekuvchilarda chekmaydiganlarga nisbatan o'n ikki marta ko'proq yurak-qon tomir xastaliklari uchraydi.

Zamon rivojlangan sari, sigaretaning ham turli ko'rinishlari ixtiro qilinmoqda. So'nggi paytlarda salomatlik uchun zararsiz, deya targ'ib etilayotgan elektron sigareta (veyp), ishlab chiqaruvchilar va'da qilayotganidek, chindan ham xavfsizmi?

Elektron sigaretalar, aksincha, salomatlik uchun o'ta xavfli mahsulot bo'lib, inson tanasida turli jiddiy kasalliklarni keltirib chiqarar ekan. Chekish jarayonida nikotin, xushbo'y hid taratuvchi, shirin ta'm beruvchi va boshqa kimyoviy moddalar organizmga zararli ta'sir etadi. Shuningdek, elektron sigareta o'pka, yurak-qon tomir tizimi kasalliklariga, immunitet sustlashishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, bu mahsulot markaziy asab tizimiga salbiy ta'sir etib, chekuvchida qaramlikni keltirib chiqaradi.

AQSHdagi Jons Xopkins tibbiyot maktabi mutaxassislari elektron sigaretaning yana bir zararini aniqlashdi. Olimlar 600 ming nafar odamni tahlil qilishganida, ularning to'qqiz foizi elektron sigaretalardan muntazam foydalanishini ma'lum qilishgan. Tadqiqotlar elektron sigareta chekadiganlarda nikotinni boshqa usulda qabul qiladiganlarga qaraganada qandli diabetning ikkinchi turining rivojlanishi 1,54 baravarga oshganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, elektron sigaretadan foydalanadiganlarda jismoniy va mental salomatlik yomonlashgani ma'lum bo'ldi.

Elektron sigaretalar odatiy tamaki mahsulotlariga o'xshasa-da, ularning ayrimlari bolalar va o'smirlarni o'ziga jalb qilish uchun kundalik ishlatiladigan buyumlar, masalan, bolalar multfilmlaridagi suratlar tushirilgan ruchkalar, USB-flesh kartalar shaklida ishlab chiqarilmoqda. Bunday marketing yondashuvi elektron sigaretalarning, ayniqsa, yoshlar orasida ommalashishiga sabab bo'lyapti. Natijada yoshlar bunga aldanib, organizmini zaharlashga odatlanib qolayotgani achinarli holdir. Hatto bugun maktablarda, o'quvchilarning bu baloga qaram bo'lib qolayotgani, eng xavflisi, qizlarning ham veyp iste'mol qilayotganini ko'rib, tashvishga tushasan, kishi.

Ma'lumki, o'smirlik davri miya rivojlanishi uchun kritik davr hisoblanib, elektron sigareta chekadigan bolalar va o'smirlarda miya rivojlanishining buzilishi, xotira va bilim olish qobiliyatining pasayishi hamda tahlikali nevrozlar kuzatiladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ko'pchilik elektron sigaretalarning zarari kamroq deb o'ylaydi. Ammo uning tarkibidagi nikotin suyuqligining insonga salbiy ta'siri narkotik moddadan ham ko'ra ko'proq.

Bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida elektron sigareta aylanmasi taqiqlangan. Xususan, Norvegiya, Eron, Iroq, Turkiya, Singapur, Turkmaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Belgiya kabi mamlakatlarda elektron sigaretalarni sotish taqiqlangan.

Endilikda O'zbekistonda ham elektron sigaretalar muomalasiga chek qo'yish masalasi qonun darajasida mustahkamlanmoqda. Oliy Majlis Senatining navbatdagi yalpi majlisida «O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga ba'zi turdagi tamaki mahsulotlarining, tamakini va nikotinni iste'mol qilish moslamalarining muomalasiga doir talablarni yanada kuchaytirishga qaratilgan o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida»gi qonun muhokama qilindi va senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va uning hududidan olib chiqish taqiqlanmoqda. Bunday xatti-harakatlar uchun ma'muriy va jinoiy javobgarlik belgilanmoqda.

Millat genofondiga jiddiy zarar yetkazuvchi ushbu salbiy illatlarga qarshi kurashish bugunning eng dolzarb vazifasidir. Shu bois davlat darajasida bunga o'z vaqtida qonuniy choralar ko'rilayotgani ayni muddao. Qolaversa, shu Vatanning har bir fuqarosi yon-atrofida ushbu illatga oshno bo'layotganlarga befarq bo'lmasdan, unga qarshi kurashishda yordam bersa, bu yo'ldagi chora-tadbirlarni amalga oshirish yanayam oson kechar edi.

**Sarvar SOBIROV,**
**o'z muxbirimiz.**

# ODAMLAR NIMA DEYDI?

## Kreditli to'y

To'y qilish uchun kredit olishga chog'langan uka undan kafil bo'lishni so'radi. Ko'ndi, lekin iloji boricha qarz bo'lmasdan to'yni ixcham qilib o'tkazishni maslahat berdi. Qishloqdoshlarining muhokamasidan cho'chigan ini rozi bo'lmadi. Qolaversa, kelin bo'lmishning ota-onasiga ham bu fikr yoqmasligi tayin. Bunaqa paytlarda hamma «Mening bolam birovdan kammi?», degan savolni beradi.

## «Uying bilan go'ring keng bo'lsin»

Ayoli o'zgarishga intiq: «Oldimizda to'ylar turibdi, odamlar uyga qarab quda bo'ladi». Oylikka kun ko'radigan erkak barcha sharoitlari bor yashash joyini buzib, o'rnida «hamma havas qiladigan balandini» qurgisi yo'q, lekin uzoq-yaqinning «Uying bilan go'ring keng bo'lsin» qabilidagi gap-so'zlaridan to'ygan. Otaning ko'nglidan kechayotganlarini sezgan o'g'il uchindi: «Ishlagani chet elga ketsam-chi yoki qarz olamizmi?..»

## «Ota, qo'rqmang!»

«Damaschi» xorijda ikki yil ishlab kelgan o'g'lini dabdaba bilan uylantirmoqni rejalashtirayotgandi. Bola rozi bo'lmadi: «Bu pulni topguncha qanchalar qiynalganimni o'zim bilaman, u tomonlarda 20 kishilik to'ylarni ko'rdim, hech kim kamayib qolgani yo'q, qiz tomonni o'zim ko'ndiraman... ota, iltimos, og'ziga kuchi yetmaydiganlardan qo'rqmang!».

Yigit xohlaganidek bo'ldi. Qarindosh va qo'shnilarga uyda osh berildi. Restoranda o'tgan bazmda 25 nafar sinfdosh qatnashdi. To'ydan ikki oy o'tgach, hovlida yuk tashishga mo'ljallangan «Labo» paydo bo'ldi.



## Aslida...

Aslida hammada tashvish yetarli. O'zidan ko'ra boshqalar to'g'risida ko'proq «qayg'uradigan» g'iybatchilar esa ishingizni do'ndirsangizda, eplay olmasangiz-da tiliga zo'r beradi. Shu bois ularni eshitmang, birov bergan bahoning sizga na issig'i, na sovug'i bor. Quloq tutsangiz, boshingiz og'rigani qoladi. Bizni qiynayotgan udumlarni o'zimiz o'ylab topganmiz, buzish ham o'zimizning qo'limizda.

Aytgancha, psixologlar fikriga ko'ra, o'zgalar fikri va bahosiga tayanib qolish tarbiyadagi xatolik natijasi ekan. Ya'ni, ular bolalikda «Sen odam bo'lmaysan», degan gapni ko'p eshitishgan va ijobiy baho uchun umrlarini qanday sarflaganliklarini bilmay qolishadi.

Erkin bo'ling, erkka nima yetsin!

**Alijon ABDUSATTOROV,**
**o'z muxbirimiz.**
*Jizzax viloyati.*

XODIM QANDAY BO‘LISHI KERAK?

Mahmud TOIR,
O‘zbekiston xalq shoiri.

# QAT’IYAT VA QADR SOHIBLARI



**Inson bu dunyoda baxtli yashashga haqli. Baxt esa, qo‘l cho‘zsang, kaftingga qo‘nadigan qush emas. Bordi-yu, biz baxtni qush deb tasavvur qilgan chog‘da ham, u chinakam fidoyi, tilu dili bir, niyati qilayotgan ishi, amaliga mutanosib, halol va pokiza insonlar boshida uchadi, parvona bo‘ladi.**

Yaxshilik, millatparvarlik, vatanparvarlik har bir insonga yarashadi. Bu fazilatlar sohibi, avvalo, oilasining, jamiyat, mahalla-ko‘y, uni bilgan hamyurtlari e’tibor-u e’zozida bo‘ladi.

Shu o‘rinda, men «Ichki ishlar organi xodimi qanday fazilatlarga ega bo‘lishi kerak?» degan savolga hech ikkilanmay, quyidagi fikr-mulohazalarni keltirgan bo‘lardim.

Xalqimiz tili bilan aytganda, yetti o‘lchab, bir kesadigan, chuqur mulohazali, odamoxun, bag‘rikeng, bosiq, ayni paytda qat’iyatli, so‘zi keskir, jism-u jonidan ulug‘vorlik, salobat yog‘ilib turadigan, hamisha va har ishda adolatga tayanadigan, qonun ustuvorligiga qat’iy amal qiladigan, o‘z vakolati chegaralarini biluvchi va uni suiiste’mol qilmaydigan, bilimli, oilaparvar inson bo‘lishi kerak, deb o‘ylayman.

Chunki hukm o‘quvchi yoki shuni ijro etadigan odam jazolashga doimo ulguradi. Vaholanki, ichki ishlar organlarining asosiy xizmat mayog‘i jazolash emas, balki jinoyat yoki huquqbuzarlikning barvaqt oldini olishga qaratilishi lozim! Shu ma’noda, ichki ishlar xodimi ham jazolovchi maqomidan ko‘ra, jinoyatning oldini oluvchi, huquqbuzarliklar sodir etilmasligini ta’minlovchi bo‘lishini juda-juda istardim. Dunyoda sabab va oqibat degan ikki o‘zan bor. Ichki ishlar xodimi, modomiki, xalq, jamiyat bilan muomala qilarkan, mana shu omillarni o‘z hayotiy tajribasi va malakasi, bilimi, odamlarning turmush tarzi, dunyoqarashi va kasb-u korini kuzatgan shaxs sifatida to‘g‘ri va tezkor baholay olmog‘i darkor! Ana shunda salla olib kelinishi joiz bo‘lgan o‘rinlarda kalla ham qo‘shib keltirilmaydi...

Aybiga o‘z ixtiyori bilan iqror bo‘lgan insonni o‘z vijdoni ko‘zgusiga solish, qalban ezgulikka esh qilish, oilasi, el-yurt oldidagi mas’uliyatini anglatish, bir so‘z bilan aytganda, Xudodan qo‘rqib, xalqdan uyalishigacha yetkazish uchun ichki ishlar sohibi bilimli, oqil-u odil bo‘lmog‘i zarur.

Muxtasar qilsak, ichki ishlar organlari xodimlari ezgu ishda, ezgu niyatlarda, ezgu amallarda namuna bo‘lolsa, unday odamga o‘zgalar ham ergashadi, havas qiladi, suyanadi, ishonadi! Zotan, Yangi O‘zbekistonda qat’iyat sohibi qadr topadi, hayotidan, kasbidan baraka topadi!

# EL ORASIDAGI HAQIQATLAR

Chin inson ikki nimarsani hech qachon unutmasligi darkor: birovdan ko‘rgan yaxshiligini va birovga qilgan yomonligini.

Va ikki nimarsani darhol unutmog‘i lozimdur: birovdan ko‘rgan yomonligini va birovga qilgan yaxshiligini...



* * *

Donishmanddan so‘rabdilar:

– Nima uchun uylarning bolori toq bo‘ladi, masalan, 7 bolorli?

Donishmand ko‘p o‘ylab o‘tirmay javob beribdi:

– Sakkizinchisi uyning erkagi...

* * *

O‘ttiz ikki tish orasidan chiqishga muvaffaq bo‘lgan sir o‘ttiz ikki mahallaga tarqalishi shubhasiz.

* * *

Hech qachon birovga loy chaplashga urinmang! Otgan loyingiz unga tegmasligi mumkin, lekin sizning qo‘lingiz ifloslgicha qoladi.

# AJOYIB IXTIRO

Amerikalik mashhur olim Tomas Edisonning hovlisidagi eshik juda og‘ir ochilar va bu uning tanishlari orasida katta qiziqish uyg‘otgandi. Nihoyat, do‘stlaridan biri undan so‘radi:

– Sendek har narsaga aqli yetgan daho bundan yaxshiroq va qulay eshikni o‘rnatib olsang bo‘lardi-ku. Nega bunga hech vaqt ajratmaysan?

– Bilmagan odam uchun shunday, albatta, – javob berdi Edison. – Lekin u juda qulay va oqilona o‘rnatilgan. Chunki eshik uy ichidagi suv ta’minoti uskunasiga ulangan. Xonadonimga kirgan har bir odam bu eshikni ocharkan, o‘zi bilmagan holda sisternaga yigirma litrdan suv tortib chiqaradi.

**Gulchehra AZIMOVA tayyorladi.**

MA’NAVIYAT

# KITOB – BILIM MANBAYI

**Bugungi kunda ichki ishlar organlari xodimlarining ma’naviy dunyosini boyitish, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalardagi yangilanishlar jarayonlaridan xabardorlik darajasini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu ishlarning uzviy davomi sifatida xodimlar uchun kitob yarmarkalari, turli ko‘rik-tanlovlar uyushtirilib kelinmoqda.**

Toshkent shahar IIBB YHXX shaxsiy tarkibi uchun kitob yarmarkasi tashkil etildi. Kitob yarmarkasida qatnashgan ko‘plab xodimlar shaxsiy kutubxonasini yanada boyitishdi.





Shuningdek, «Teatr haftaligi», «Ma’naviyat marshruti» loyihasi doirasida ichki ishlar organlari xodimlarining madaniyat obyektlari, muzey va ziyoratgohlarga tashriflari amalga oshirildi.

**O‘z muxbirimiz.**
*Toshkent shahri.*

Международное сотрудничество

# ПЛОДОТВОРНЫЙ ДИАЛОГ



**В городе Баку (Азербайджан) состоялась международная научно-практическая конференция на тему «Актуальные вопросы экспертно-криминалистической деятельности компетентных органов государств – участников СНГ».**




Мероприятие было организовано Министерством внутренних дел Азербайджанской Республики и Бюро по координации борьбы с организованной преступностью и иными опасными видами преступлений на территории государств – участников СНГ.

В работе конференции приняла участие делегация Министерства внутренних дел Республики Узбекистан в составе начальника Главного экспертно-криминалистического центра полковника С. Нуриддинова, главного эксперта ГЭКЦ подполковника А. Рахимова, начальника кафедры Академии МВД подполковника А. Хусанова.

Состоялся плодотворный диалог по вопросам дальнейшего совершенствования экспертно-криминалистической деятельности на основе широкого использования достижений науки, расширения межведомственного двустороннего и многостороннего сотрудничества.

Специалистами из Узбекистана была представлена развернутая информация о работе, проводимой в данном направлении. Особый интерес у участников конференции вызвал «узбекский опыт» внедрения новых подходов к применению научных достижений и современных технологий в экспертно-криминалистической деятельности, организации эффективного процесса целевой подготовки, переподготовки и повышения квалификации кадров, обеспечения неразрывной связи теории и практики.

В рамках мероприятия участники ознакомились с лабораториями и научно-исследовательской работой Управления экспертно-криминалистических исследований МВД Азербайджана, состоялась встреча с его руководством. Обсуждены вопросы организации учебного курса по проведению ДНК-исследований и ведению государственной геномной информации с привлечением специалистов из Узбекистана и Азербайджана.

**Радик ТУМПАРОВ, соб. корр.**

## Хорезмская область

# ОБЕСПЕЧИВАЯ ПРАВОПОРЯДОК

**В целях предупреждения правонарушений и преступности в республике проходит масштабное оперативно-профилактическое мероприятие «Безопасная и здоровая страна».**



Осматриваются объекты торговли и бытового обслуживания, развлекательные заведения. С их руководителями проводятся профилактические беседы, чтобы еще раз напомнить о важности мер предосторожности – установке осветительных приборов, камер наблюдения, задействовании служб охраны, соблюдении правил пожарной безопасности и др. В ходе встреч раздаются памятки и буклеты на эту тему.

За время проведения оперативно-профилактических мероприятий раскрыто 27 преступлений, связанных с незаконным оборотом наркотиков, 11 грабежей, факт торговли людьми, задержаны 14 лиц, скрывавшихся от органов следствия и правосудия.

В качестве вещественного доказательства у нарушителей изъято свыше 1,1 килограмма наркотических средств, 200 таблеток сильнодействующих препаратов, 5 единиц огнестрельного оружия и боеприпасов, 17 единиц холодного оружия (кастеты, нунчаки, ножи и т.д.).



Преступление, связанное с торговлей людьми, было раскрыто в ходе мероприятия, проведенного сотрудниками оперативно-розыскной службы УВД в сотрудничестве с другими правоохранительными органами.

Жительница Багатского района Наргиза П. познакомилась через социальные сети с Рохат К. из Хивинского района и Умидой М. из города Ургенча. Она заверила девушек, что за границей можно зарабатывать по 3-4 тысячи долларов США в месяц и пообещала все организовать. Однако женщина планировала в стране назначения передать девушек сутенерам...

Обеспечение безопасности на дорогах – еще одно направление работы. В рамках мероприятия организовано усиленное дежурство инспекторов дорожно-патрульной службы. В отношении нарушителей правил оформляются протоколы задержания. В махаллях, учебных заведениях и на предприятиях проводятся беседы.

**Худойберган ЖАББОРОВ, соб. корр.**

MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT DARSI

# YURTIM TARIXINI O'RGANAMAN

## (tarixiy obidalarga sayohat)

**Yurtimizdagi tarixiy obidalarning mahobati, o'ziga xos me'moriy uslubi, asrlar silsilasidan bizgacha yetib kelayotgani butun dunyoni lol qoldirmoqda. Sayyohlar ajdodlarimiz tomonidan bunyod etilgan muhtasham san'at asarlarini o'z ko'zi bilan ko'rish, ulardagi ulug'vorlikni his qilish uchun tashrif buyurishadi.**


Ichan qal'a. Xorazm

O'zbekistonda tarixiy yodgorliklar va turizm haqida so'z borganda, birinchi navbatda, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi UNESCO ro'yxatidan o'rin olgan shaharlar ko'z oldimizga keladi. Zero, Toshkent, Qo'qon, Andijon, Shahrisabz – bu oxiri yo'q zamonaviy sharq ertagi.

Yurtimizga tashrif buyurgan sayyohlar o'z sayohatlarini, avvalo, Toshkent shahridan boshlaydi. Toshkent shahrining qadimgi nomlari turli manbalarda turlicha keltirilgan: Choch, Binkat, Shosh. Toshkent nomi ilk bor Mahmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'otit-turk» asarida uchraydi.

Toshkentning Eski shahar qismida joylashgan qadimgi Kaykovus anhori bo'yidagi Hazrati Imom majmuasi turli davrlarda qurilgan me'moriy obidalar jamlanmasidir. U toshkentlik mashhur diniy olim, shofeiy mazhabining imomlaridan, qoraxoniylarning rahnamosi Abu Bakr Muhammad Qaffol Shoshiyning maqbaralari atrofida dunyoga kelgani uchun Hazrati Imom nomi bilan ataladi.


Chor Minor (xalifa Niyozquli madrasasi). Buxoro

Yer yuzining sayqali, qadimiy va hamisha navqiron Samarqand doimo o'ziga sayyohlarni chorlab kelgan. Samarqand tarixda bo'lgani kabi, bugun ham butun dunyodan o'ziga odamlarni jalb qilmoqda.

Samarqand shahriga eramizdan avvalgi VIII asrda asos solingan. Qadimdan Fors imperiyasi tarkibidagi So'g'd viloyati markazi hisoblangan. Dastlab Samarqand hozirgi Afrosiyob arxeologik hududida mavjud bo'lgan. XIII asrda mo'g'ullar hujumidan katta talafot ko'rgan shahar keyinchalik odamlar ko'chib ketishi oqibatida bo'shab, xarobaga aylangan. XIV asrda Amir Temur hukmronligi yillarida shahar o'z qudratining cho'qqisiga chiqqan.

Nafaqat Samarqandning, balki butun O'zbekistonning ramzi bo'lgan Registon maydoni shaharning tashrif qog'ozi hisoblanadi. Samarqandga borgan kishi borki, Registon ansamblini ko'rmasdan qaytmaydi. Registon maydoni Samarqandning markazi hisoblangan. U yerda bozor mavjud bo'lgan. XV asrda Mirzo Ulug'bek bu yerda madrasa, xonaqoh, karvonsaroy qurdirgan. XVII asrga kelib Samarqand hokimi Yalangto'sh Bahodir Ulug'bek madrasasi ro'parasida, xonaqoh o'rnida katta madrasa qurdirgan. Peshtoqidagi sher tasviri tushirilgan bezaklari uchun xalq orasida Sherdor nomi bilan mashhur. Maydonning g'arbiy qismida Mirzoyi karvonsaroyi o'rnida Yalangto'sh Bahodirning ikkinchi madrasasi bor.

Samarqandning yana bir javohiri Amir Temur maqbarasi bo'lib, u XV asrning boshiga oid. Dastlab bu yerda Amir Temurning nevarasi hamda taxt vorisi Muhammad Sulton bir madrasa va bir xonaqoh qurdirgan. Ikki bino bir-biriga qarama-qarshi qilib qurilgan. 1403-yilda Muhammad Sulton Shomda vafot etadi. Temur nevarasi uchun ushbu majmua hududida maqbara qurishni buyuradi.

Samarqadning muqaddas qadamjolari orasida, shubhasiz, Qusam ibn Abbos maqbarasi yetakchi hisoblanadi. Ushbu maqbara Shohi Zinda arxitektura majmuasining tarkib topishida markaziy rol o'ynagan. Chunki aynan shu maqbara atrofida keyinchalik ko'plab maqbaralar bino qilingan. Majmua XI–XX asrlar mobaynida shakllanib borgan. Dastlab XI–XII asrlarda, qoraxoniylar hukmronligi davrida maqbaralar qurilgan.


Shohimardon. Farg'ona

Qubbat-ul islom – Buxoroyi sharifning yoshini tarixchilar 2500 yildan ko'proq deb hisoblaydi. Buxoro vohasida juda qadim zamonlardan bir qancha yirik shaharlar bo'lgan: Poykent, Romiton, Varaxsha va Vobkent shular jumlasidan.

Buxoroda somoniylar va qoraxoniylar davrida ko'plab qurilish inshootlari, madrasalar, masjidlar, jamoat binolari, hammomlar qurildi. Markaziy Osiyodagi ilk madrasa ham aynan Buxoroda qurilgan bo'lib, u Farjak deb nomlangan. Ushbu binolardan ko'pchiligi mo'g'ullar bosqini paytida buzib tashlandi. Mo'g'ullardan oldingi qurilishlardan Ismoil Somoniy maqbarasi, Minorai Kalon, Vobkent minorasi, Mag'oki attor kabi inshootlar saqlanib qoldi.

Buxoroga tashrif buyurgan har bir sayyoh Ismoil Somoniy maqbarasi, Poyi kalon majmuasi, Sitorai Mohi-Xosa saroyini albatta borib ko'radi. Ismoil Somoniy maqbarasi IX–X asrlar noyob yodgorlik majmuasi hisoblanadi. Biroq Buxoroning tashrif qog'ozi, shubhasiz, Poyi Kalon majmuasidir. Majmua Arslonxon minorasi, Katta jome masjidi va Mir Arab madrasasidan tashkil topgan. Majmuadagi eng qadimiy bino bu xalq orasida Minorai Kalon, ya'ni Katta minora deb yuritiladigan Arslonxon minorasidir. Minora 1127 yilda qoraxoniylar hukmdori Arslonxon Muhammad buyrug'iga ko'ra, Usta Baqo boshchiligidagi quruvchilar tomonidan qurilgan.

O'rta asrlar shaharlari qiyofasini hanuzgacha saqlab kelayotgan Markaziy Osiyodagi yagona shahar – XIVA. Xivaning nomi X asrdan boshlab hujjatlarda tilga olina boshlaydi. Masalan, X asrda yashagan tarixchi Istahriy Xivani o'sha davrning eng yirik 30 ta shahridan biri, deydi. Shahar nomi Ichan qal'ada joylashgan Xeyvaq qudug'idan olingan. Bundan tashqari, osetin tilidagi «Xiauv» qal'a so'zidan yoki antik davrda shahar yaqinida oqib o'tgan Xeykanik, hozirgi Polvonyop kanali nomidan kelib chiqqan, degan qarashlar ham mavjud. Xiva shahri XVI–XX asrlarda Xorazm (Xiva) xonligining poytaxti vazifasini o'tagan.

Xiva shahridagi Ichan qal'a me'moriy majmuasi ichki shahar demakdir. XIX asr boshida shahar aholisi ko'paygach, odamlar devor tashqarisiga chiqib o'rnasha boshlagan. Shunda Xorazm xoni Muhammad Rahimxon I tashqaridagi aholini tashqi hujumlardan asrash maqsadida ikkinchi devorni tiklatadi. Shu tariqa shahar ikki qismga: Dishan qal'a (tashqi shahar) va Ichan qal'a (ichki shahar)ga bo'linadi. Ammo tashqi devorlar XX asrda shahar kengayishi natijasida buzib tashlangan. Dishan qal'aning bir nechta darvozalari saqlanib qolgan. Ichan qal'a esa devorlari ta'mirlangan holatda saqlanib qolgan.

Ichki ishlar organlarida ham yurtimiz tarixini o'rganishga alohida e'tibor qaratiladi. Xususan, xodimlarning ma'naviy-ma'rifiy bilimlarini oshirish, ularni milliy qadriyatlarga sodiq barkamol shaxs sifatida tarbiyalash maqsadida IIV Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamenti tomonidan «Ma'naviyat marshrutlari» ishlab chiqilgan. Unga asosan, xodimlar yurtimizning diqqatga sazovor joylari, muzeylar, ma'naviyat va ma'rifat maskanlari, tarixiy hamda madaniy obidalariga tashrif buyurishadi.

Mamlakatimizdagi asrlar yukini ko'tarib kelayotgan mavjud tarixiy obidalar, muqaddas qadamjolar barchamizning g'ururimiz. Ular bizga ajdodlardan qolgan buyuk meros. Zero, ularni asrab-avaylab, kelajak avlodlarga bus-butun yetkazish barchamiz uchun muhim vazifadir.

**Sarvar SOBIROV,**
**o'z muxbirimiz.**

**Maqolani qoraqalpoq tilida o'qish uchun QR-kodni skaner qiling.**

Postda На посту

BIZNING SUHBAT

# BARCHA QULAYLIKLAR INSON QADRI UCHUN

**Bugungi kunda tinch va osoyishta hayotimizni asrash va mustahkamlash, aholining kafolatlangan xavfsizligini ta'minlash masalasi dolzarb hisoblanadi. «Xavfsiz shahar» tizimlarini yaratish va rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlanib, IIV «Xavfsiz shahar» tizimlarini rivojlantirish markazi qayta tashkil etildi. Bu borada amalga oshirilayotgan keng ko'lamli sa'y-harakatlar bilan yaqindan tanishish maqsadida ushbu markaz direktori, mayor Ulug'bek Kulanov bilan suhbatlashdik.**



– «Xavfsiz shahar» tizimi — xavf-xatarlarni, favqulodda vaziyatlarni, hodisalarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni kompleks boshqarish tizimi bo'lib, davlat tomonidan aholi hayoti va faoliyatini barcha tashqi tahdidlardan muhofaza qiladi, – deydi u. – Shuningdek, jamoat tartibini saqlash, fuqarolar hayoti va sog'ligini turli xavflardan himoya qilish, jismoniy va yuridik shaxslar mulkining ishonchli qo'riqlanishini tashkil etish, huquqbuzarliklar profilaktikasiga qaratilgan jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimida bir qator ishlarni amalga oshiradi.

Ichki ishlar vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, Toshkent shahri va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda hududlarda «Xavfsiz shahar» yagona integratsiyalashgan tizimini yaratish va rivojlantirish yuzasidan yillik manzilli dasturlar ishlab chiqildi. Dastur ijrosi doirasida hududlarda tizimni joriy qilish uchun bosqichma-bosqich qurilmalar belgilangan manzillarda o'rnatilib, ishga tushirilmoqda. Jumladan, o'tgan yilning oxirigacha «Xavfsiz shahar» loyihasi doirasida 11 ming 243 ta turli yo'nalishdagi kameralar o'rnatildi. Mahallalardagi ko'p qavatli uylar, ta'lim, sog'liqni saqlash muassasalari hamda ularga kirish-chiqish joylarida intellektual videokuzatuv kameralari qo'yilib, hududiy ichki ishlar organlarining Tezkor boshqaruv markazlariga integratsiya qilinmoqda.

Shuningdek, doimo odamlar bilan gavjum bo'ladigan bozorlar, madaniyat va istirohat bog'lari, savdo markazlari, maydonlar, muzey, ko'ngilochar maskanlar, mehmonxonalar va dam olish majmualarida shaxsni yuzidan tanib oluvchi kameralarni o'rnatish hamda ularni hududiy ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya bo'linmalarining axborot tizimi bilan integratsiya qilish bo'yicha bir qator ishlar bajarilmoqda.

Eng muhimi, «Xavfsiz shahar» tizimining yagona apparat-dasturiy platformasi joriy etilib, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro, Navoiy, Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax, Andijon, Farg'ona va Toshkent viloyatlarida test rejimida ishga tushirildi.

**– Markaz erishadigan yutuqlar nimalarda namoyon bo'ladi?**

– «Xavfsiz shahar» loyihasi to'liq joriy etilganidan so'ng, mazkur tizimlar orqali jinoyatchilik 30–40 foizgacha kamayishiga, foto va videomateriallar yordamida jinoyatlarning 40–50 foizgacha fosh etilishiga muvaffaq bo'linadi.

**– Mamlakatimiz turizm salohiyati rivojiga mazkur loyihalarning ahamiyati qanday?**

– Xalqaro turizm amaliyotiga ko'ra, sayohatchilar ko'payishi va sayohat geografiyasi kengayishi bilan xavfsizlik choralariga rioya etish zarurati keskin ortadi. Shu sababli, Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani «Chorvoq» erkin turistik zonasida «Xavfsiz turizm» loyihasi doirasida 140 ga yaqin obyektning videokuzatuv kameralari «Vaziyatlar markazi»ga integratsiya qilindi.



Shu bilan birga, yo'llarda tirbandliklarning oldini olish uchun noqonuniy to'xtash va to'xtab turish qoidabuzarliklarini aniqlovchi, avtotransport oqimini hisoblovchi va davlat raqami belgisini aniqlovchi, tezlikni o'lchovchi foto-video qayd etish hamda yong'indan xabar beruvchi intellektual videokuzatuv qurilmalari o'rnatilib, foydalanishga topshirildi. Bu esa, sayyohlar xavfsizligini ta'minlash, jamoat tartibi hamda yo'l harakati qoidalari buzilishining oldini olish, voqea-hodisalarni uzluksiz kuzatib borish, muammoning bevosita boshlang'ich nuqtasidan xabardor bo'lish va bartaraf etishga xizmat qiladi. O'z navbatida, turizm sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi va sayyohlar hisobini yurituvchi davlat hamda nodavlat tashkilotlarining yagona axborot bazasini shakllantirishda qo'l kelmoqda.

**– Ommaviy tadbirlarda qonunbuzarliklar qay tarzda bartaraf etiladi?**

– Hukumat topshiriqlari asosida joylarda o'tkazilgan tadbirlar uchun videokuzatuv tizimlari joriy etildi. Masalan, avvallari yurtimizdagi oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun o'tkaziladigan test sinovlarida turli noqonuniy holatlar kuzatilardi. Endilikda, test sinovlarining shaffofligi va haqqoniyligini ta'minlashga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Bu esa, abituriyentlar va ota-onalar ko'nglida sog'lom raqobatga ishonch uyg'otdi. Shuningdek, mamlakatimizdagi eng muhim ijtimoiy va siyosiy tadbirlarda ham mazkur hududlarga videokuzatuv qurilmalari o'rnatilib, jamoat xavfsizligini monitoring qilish va muvofiqlashtirish hamda Jamoat xavfsizligi xizmati situatsion-tahlil markaziga to'liq integratsiya qilindi.

**– Mahallalar va yo'llardagi qoidabuzarliklarni aniqlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ham to'xtalsangiz?**

– Mahallalardagi noxush vaziyatlarni kamaytirish, tinchlik-osoyishtalikni ta'minlash uchun bugun Namangan, Sirdaryo, Buxoro, Samarqand, Farg'ona, Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahri mahallalarida jami 1 ming 157 ta, shahar va tumanlarga kirish-chiqish obyektlariga avtotransport vositalarining davlat raqami belgilarini aniqlovchi 19 ta va yo'l harakati qoidabuzarliklarini foto-video qayd etuvchi avtomatlashtirilgan tizim uchun 84 ta, to'xtash va to'xtab turish, belgilangan tezlikdan oshirilganlik uchun qoidabuzarliklarini aniqlovchi 9 ta kamera o'rnatildi. Shu bilan birga, «Raqamli xavfsiz mahalla» konsepsiyasi doirasida Samarqand, Namangan, Farg'ona, Qashqadaryo viloyatlarida jami 790 ta, shahar va tumanlarga kirish-chiqish obyektlarida avtotransport vositalarining davlat raqami belgilarini aniqlovchi 71 ta kamera ishlab turibdi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida hududiy yo'l harakati xavfsizligi boshqarmalari tomonidan o'rnatilgan yo'l harakati qoidalari buzilishini foto va video qayd etuvchi hamda «Ma'muriy amaliyot» kompleks avtomatlashtirilgan axborot tizimiga ma'lumotlarni uzatuvchi 407 ta kamera «Xavfsiz shahar» markazi tasarrufiga o'tkazildi. 146 ta radar, 6 ta to'xtash va to'xtab turish qoidabuzarliklarini qayd etuvchi kameralar xarakat xavfsizligi xizmatining «Ma'muriy amaliyot KAAT» tizimiga integratsiya qilindi.

**– Kelgusida yana qanday rejalarni amalga oshirish ko'zda tutilyapti?**

– Yurtimiz bo'ylab xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish maqsadida Samarqand, Farg'ona, Qashqadaryo, Namangan va Toshkent viloyatlarining «qizil» toifadagi mahallalarida raqamlashtirish va intellektual videokuzatuv kameralarini o'rnatish ishlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, 1 373 ta «qizil» toifadagi mahallalarga 23 ming 328 ta ana shunday kameralar o'rnatish rejalashtirilgan. Ayni paytgacha ularning 3 278 tasi o'rnatilib bo'lindi. Shuningdek, «Raqamli xavfsiz mahalla» konsepsiyasi asosida Samarqand viloyatida 460 ta, Farg'ona viloyatida 216 ta, Qashqadaryo viloyatida 381 ta, Namangan viloyatida 410 ta, Toshkent viloyatida 65 ta yuzdan tanib olish, aylanma hamda avtotransport vositasining davlat raqamini aniqlash imkoniga ega bo'lgan intellektual videokuzatuv kameralari o'rnatilib, bosqichma-bosqich integratsiyalash ishlari olib borilyapti.

**Mixli SAFAROV, kapitan.**

Урок духовности и просвещения



# ИЗУЧАЮ ИСТОРИЮ РОДНОГО КРАЯ

**История родного края – не просто набор дат и имен, а живая нить, связывающая нас с прошлым, формирующая настоящее и во многом определяющая будущее.**

Знание истории помогает понять, кто мы есть, осознать связь с землей, на которой живем. Постижение истории Родины воспитывает чувство патриотизма, укрепляет гордость за достижения великих предков. Изучая исторические процессы, мы устанавливаем параллели, делаем выводы, ибо история учит мудрости, помогает избежать ошибок.

Президент страны Шавкат Мирзиёев, подчеркивая важность изучения истории для формирования национального самосознания, отметил: «Каждому дорого свое прошлое. Но такой богатой истории как у нашей страны, таких великих ученых как наши предки больше нет нигде. Мы должны глубоко изучать это наследие».

В органах внутренних дел уделяется особое внимание постижению сотрудниками истории Родины. В подразделениях на системной основе проводится духовно-просветительская работа, направленная на формирование высоких моральных качеств и нравственных принципов. Составная ее часть – изучение исторического прошлого, созидательной деятельности соотечественников, внесших неоценимый вклад в развитие страны. Комплексный подход к духовно-просветительской работе и изучению истории способствует воспитанию нравственно устойчивых и патриотически настроенных сотрудников.

Ежегодно проводимый в системе ОВД месячник духовности включает разнообразные мероприятия, в том числе конкурсы «Заковат», «По следам предков», «Лучший книголюб», обязательный элемент которых – блок вопросов по истории. Лекции, посвященные историко-культурным ценностям, направлены на углубление знаний о поступательном пути развития Узбекистана, его вкладе в мировую цивилизацию.

В рамках данной деятельности для сотрудников регулярно организуются экскурсии по знаменательным местам. Департаментом духовно-просветительской работы и кадрового обеспечения МВД разработаны «Маршруты духовности», цель которых – расширение знаний сотрудников об истории родного края. Сотрудники получают возможность проследить нить исторической преемственности, осознать вклад предков в развитие науки, культуры, государственности. Примечательно, что экскурсии проводятся не только для сотрудников, но и для членов их семей.

Так, сотрудникам, несущим службу в Ташкенте, рекомендовано ознакомиться с экспозицией Государственного музея Темуридов, рассказывающей о деятельности великого Сахибкирана. Посещение Государственного музея Памяти жертв репрессий позволит ознакомиться с деятельностью по увековечению имен представителей джадидизма, которые в сложный период геополитического надлома выступили с идеей национального возрождения, узнать о трагических событиях, связанных с репрессиями, унесшими жизни тысяч невинных людей. Интерес вызовут также экспонаты Музея истории органов внутренних дел, рассказывающие об этапах развития органов правоохраны.







Кашкадарьинская область богата на уникальные объекты, среди которых резиденция Амира Темура в его родном городе Шахрисабзе – дворец Оксарой, архитектурные памятники Лангар ота, Мир Хайдар ота, Хазрати Башир и др.

В Сурхандарьинской области стоит посетить фамильную усыпальницу династии Сейидов – мемориально-культовый комплекс Султан-Саодат, осмотреть Джаркурганский минарет, называемый «гофрированным чудом», Археологический музей в Термезе, коллекция которого насчитывает свыше 27 тысяч экспонатов.

Интересный маршрут проложен по Каракалпакстану. К посещению рекомендованы историко-археологические памятники, в числе которых окутанный легендами некрополь Миздакхан, комплекс Султан Увайс-Бобо, Государственный музей искусств им. Игоря Савицкого, который заслуженно называют «Лувром в пустыне». В перечне объектов – старейший в Центральной Азии Государственный музей истории и культуры Республики Каракалпакстан. Он располагает более чем 65 тысячами экспонатами, в числе которых не имеющие аналогов артефакты и макеты городищ, старинные народные костюмы, убранство юрты, ковровые изделия, оружие и доспехи.

Постижение истории родного края происходит и в рамках программы «Путешествуй по Узбекистану!». Следует отметить, что в апреле 2025 года главой государства анонсирована еще одна важная инициатива – введение «дней путешествий» для семей и трудовых коллективов. В числе ее целей – популяризация исторического наследия страны.

Изучение истории воспитывает любовь к родному краю, желание быть достойными памяти предков, продолжать их дело, чтобы передать эстафету будущим поколениям.

**Радик ТУМПАРОВ,
кандидат
педагогических наук.**

# ODAMLAR TASHVISHIDA

**Shu yilning 26-martidan 27-martiga o‘tar kechasi Buxoro tumanidagi «Dehcha» mahalla fuqarolar yig‘inida joylashgan «Oybek Aziz mebel jihoz» MCHJga qarashli savdo do‘konida sodir etilgan jinoyat sex rahbarini ancha esankiratib qo‘ydi. Chunki noma’lum shaxslar savdo do‘koniga g‘ayriqonuniy ravishda kirib, seyfdan 20 ming AQSH dollari miqdoridagi pullarni o‘g‘irlab, juftakni rostlagan edi.**

Olib borilgan tezkor-qidiruv tadbirlari natijasida gumondorlar shu mahallada yashovchi aka-uka M.B. va F.B.lar ekanligi aniqlandi. Ularning yashash xonadonidan jinoyat sodir etgan vaqtida ustida bo‘lgan kiyimlar hamda jinoyatga aloqador 19 ming 900 AQSH dollari va 4 million 600 ming so‘m miqdoridagi pullar xolislar ishtirokida ashyoviy dalil sifatida hujjatlashtirib olindi.



Tuman IIB huzuridagi tergov guruhi katta tergovchisi, mayor Mirjalol Temirov xizmat paytida.

Surishtiruv davomida M.B. muntazam ravishda «1xBet» elektron qimor o‘yiniga qatnashib, katta miqdorda qarz bo‘lib qolgani sababli ushbu jinoyatga qo‘l urgani ma’lum bo‘ldi.

– Tergov jarayonida yana shu narsa ayon bo‘ldiki, Buxoro shahar «Sheyxon» mahallasidagi «Farzona Mirfayz mebel» MCHJda bo‘lgan o‘g‘rilikni ham aynan aka-uka sodir qilgan ekan, – deydi mayor M. Temirov.

– Jinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha ko‘plab profilaktik tadbirlar, tashviqotlar o‘tkazib borilyapti, – deydi tuman IIB boshlig‘i, podpolkovnik G‘iyos Adilov. – Xususan, har bir mahalla, oila va shaxs kesimida jinoyatchilikning sabablarini aniqlash hamda ularni bartaraf etishda «Xavfsiz mahalla» va «Xavfsiz hudud» tamoyillari asosida mahalla yettiligi bilan hamkorlikda ishlash – faoliyatimizning bosh mezoniga aylandi. Xonadonma-xonadon yurilib, aholining muammolari joyida ijobiy hal etilib, fuqarolarning bandligi ta’minlamoqda. Shuningdek, tuman hokimligining tashabbusi bilan yuzni tanib oladigan kuzatuv kameralari aholi gavjum joylarda o‘rnatilmoqda. Ayni paytgacha 160 ta kuzatuv kamerasi o‘rnatilgan bo‘lib, viloyat IIB Situatsion markaziga intergratsiya qilish choralari ko‘rilmoqda.

Bu ishlarning samarasi sifatida aniqlangan jinoyatlar o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 5 taga ko‘p aniqlandi. Oldini olish lozim bo‘lgan jinoyatlar esa sezilarli darajada kamayishiga erishildi. Jumladan, qasddan badanga o‘rtacha tan jarohati yetkazish, nomusga tegish, talonchilik, o‘lim bilan tugagan yo‘l-transport hodisasi, transport vositasini olib qochish va bezorilik jinoyatlari qayd qilinmadi. Bundan tashqari, shaxslar kesimida jinoyatchilikni tahlil qiladigan bo‘lsak, voyaga yetmaganlar, ayollar, muqaddam sudlanganlar, ichkilikka ruju qo‘yganlar va ishsizlar tomonidan jinoyatlar umuman sodir etilmadi.



. Tuman IIB HPB Ma’muriy amaliyot guruhi katta inspektori, leytenant Eldor Elmurodov.




Mayor Aminjon Avezov mahalla faollari bilan birga navbatdagi ishni rejalashtirmoqda.

Tumanda 36 ta mahalla fuqarolar yig‘ini mavjud bo‘lib, profilaktika inspektorlari faollar va jamoatchilik vakillari bilan hamkorlikni yaxshi yo‘lga qo‘yishgan. Olib borilayotgan profilaktik tadbirlar natijasida mazkur mahallalarning 28 tasida umuman jinoyat sodir etilishiga yo‘l qo‘yilmadi. 5 ta mahallada jinoyatchilik holati bo‘yicha barqarorlikka erishilayotgan bo‘lsa, qolgan 3 ta mahalla «qizil» toifaga kiritilgan.

Profilaktika katta inspektori, mayor Aminjon Avezov Oybek nomli mahalla fuqarolar yig‘inida to‘rt yildan beri xizmat olib boradi. U faoliyatini boshlagan yili mahallada 18 ta jinoyat sodir etilgan edi. O‘tgan yillar davomida to‘plagan boy tajribasini amalda qo‘llab, jinoyatlar sonini kamaytirishga erishdi. Ayni paytda uning mahallasi «yashil» toifada.

– Mahallamiz hududidan «M-37»avtomagistral o‘tganligi tufayli avtomashinalar harakati kun-u tun to‘xtamaydi, – deydi mayor Aminjon Avezov. – Shu sababli bo‘lsa kerak, hududimizda sodir etilayotgan huquqbuzarliklar va jinoyatlarning aksariyat qismi yo‘l-transport hodisalari hissasiga to‘g‘ri kelardi. Ana shularni nazarda tutib, yo‘l-patrul xizmati xodimlari bilan hamkorlikda turli uchrashuvlar va targ‘ibot tadbirlari o‘tkazib kelyapmiz. Bundan tashqari, 26 ta korxona va tashkilot mavjud. Yana eng gavjum joy – bozor ham bizning hududda joylashgan. Yaxshiyamki, mahallada videokuzatuv kameralari o‘rnatila boshlandi.

Tuman IIB Qo‘riqlash bo‘limi xodimlari bilan hamkorlikda o‘tkazilayotgan targ‘ibot va tashviqot ishlari davomida birgina bozor hududida 32 ta zamonaviy videokuzatuv kameralari o‘rnatildi. Mahallaning kirish-chiqish joyi, ta’lim muassasasi, savdo shoxobchalari va xonadonlar videokuzatuv moslamalari bilan jihozlanmoqda. Mayor A.Avezov xizmat olib borayotgan yillar davomida jami 264 ta videokuzatuv kameralari o‘rnatilib, huquq-tartibot maskaniga integratsiya qilindi.



Tuman IIB JXX YHXG katta inspektori, leytenant Jonibek Ochilov murojaatchi bilan suhbatlashmoqda.

Qisqasi, tuman ichki ishlar bo‘limi xodimlari huquq-tartibotni mustahkamlash, tinchlik va osoyishtalikni ta’minlash uchun bor imkoniyatlarni ishga solishyapti. Shuning uchun ham fuqarolar ishonchi ortib, ularga bo‘lgan hurmatlari oshyapti.

**Farrux USMONOV,**
**mayor.**
**Mirzoqul AHADOV,**
**o‘z muxbirimiz.**

*Buxoro viloyati.*

JARAYON

# KURSANTLAR – AMALIYOTDA

**IIV Akademiyasining 3-oʻquv kursi kursantlaridan bir guruhi Xorazm viloyati ichki ishlar organlarida ish oʻrganish amaliyotini oʻtashmoqda.**

Amaliyotda ishtirok etayotgan har bir kursantga tajribali xodimlar – murabbiylarga biriktirildi. Shuningdek, ularga amaliyot davrida xizmat intizomi va qonunchilik talablariga qatʼiy rioya etilishi yuzasidan tushuntirishlar berildi. Sohaviy xizmatlarga jalb qilingan kursantlar amaliyot jarayonida nazariy bilimlarini amalda qoʻllash bilan birga, jamoat xavfsizligini taʼminlash, jinoyatchilikka qarshi kurashishda ham faol ishtirok etishyapti. Kursantlar tomonidan bajarilgan amaliyot natijalari har oʻn kun yakuni boʻyicha tahlil qilinib, amaliy yordam, zarur koʻrsatma va maslahatlar berib borilmoqda.

– Viloyat IIB Maʼnaviy-maʼrifiy ishlar va kadrlar bilan taʼminlash xizmatida amaliyot oʻtayapman, – deydi kursant Asadbek Ibragimov. – Bu yerda xodimlarning xizmat faoliyatini, tarbiyaviy-psixologik taʼminlash yoʻnalishini sinchkovlik bilan oʻrganib, bilim va malakamni oshirishga harakat qilyapman. Qolaversa, kursantlar bilan ichki ishlar organlarida oʻtkazilayotgan maʼnaviy-maʼrifiy, profilaktik-targʻibot tadbirlarida ham qatnashyapmiz. Amaliyot davrida olgan bilim va koʻnikmamiz kelgusidagi xizmat faoliyatimizda muhim ahamiyat kasb etadi.

Viloyat IIB rahbariyati hamda IIV Akademiyasining tajribali pedagoglari tomonidan kuzatib borilmoqda. Oʻquv mashgʻulotlari yakunlangach, kursantlardan amaliyot jarayoni boʻyicha sinovlar qabul qilinishi rejalashtirilgan.

**Xudoybergan JABBOROV,**
**oʻz muxbirimiz.**
*Xorazm viloyati.*

**Suratda:** *viloyat IIB MMI va KBTX katta psixolog-poligrafologi, katta leytenant Oybek Otaniyozov kursant Asadbek Ibragimov bilan amaliyot jarayonida.*



TEZKOR-PROFILAKTIK TADBIR

## XAVFSIZ VA SOGʻLOM HAYOT SARI

**«Xavfsiz va sogʻlom yurt» keng qamrovli tezkor-profilaktik tadbiri doirasida Qashqadaryo viloyati ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan hozirga qadar koʻplab jinoiy holatlar fosh etildi.**

Oʻtgan vaqt ichida giyohvandlik moddalarini yetishtirish, saqlash, sotish hamda psixotrop dori vositalarini oʻtkazish bilan bogʻliq yigirmadan ortiq holatlar aniqlanib, aybdorlarga nisbatan jinoyat ishlari qoʻzgʻatildi. Ogʻufurushlardan 311,6 gramdan ortiq giyohvandlik moddalari, 410 dona psixotrop dori vositasi olindi.

Viloyat ichki ishlar organlari xodimlari hamkor xizmatlar vakillari bilan birgalikda taʼlim muassasalari, mahallalar, korxona va tashkilotlarda giyohvandlikning ayanchli oqibatlari, psixotrop moddalarning inson, ayniqsa, yoshlar salomatligi va hayotiga koʻrsatadigan salbiy taʼsiri, qonun hujjatlarida giyohvandlik vositalarini isteʼmol qilganlik, tarqatganlik va boshqa qonunga xilof xatti-harakatlar uchun belgilangan jazo choralari xususida tushuntirish ishlarini olib bormoqda.

Targʻibot tadbirlarini oʻtkazish jarayonida asosiy eʼtibor maktablarning yuqori sinf oʻquvchilariga qaratilib, ular ishtirokida oʻtayotgan suhbatlarga tibbiyot xodimlarining ishtiroki taʼminlanmoqda. Bunday tadbirlarda giyohvandlik, uning oqibatida kelib chiqadigan nosogʻlom turmush tarzi, turli kasallliklar xususida keng maʼlumot berilmoqda.

Shu bilan birga, yoshlarning mazkur tadbirlarda bevosita ishtirokini taʼminlash hamda imkon boricha koʻproq aholi qatlamini ushbu illat oqibatlaridan xabardor qilish maqsadida, isteʼdodli oʻquvchi yoshlar tomonidan chizilgan «Biz – giyohvandlikka qarshimiz!», «Sogʻlom hayot» mavzusidagi rasmlar Qarshi shahridagi jamoat transportiga ilib chiqildi.

**Sodiq RAHIMOV,**
**oʻz muxbirimiz.**
*Qashqadaryo viloyati.*

## «SOS» TUGMASI VA KAMERALAR tashvishimizni aritmoqda

**Jarqoʻrgʻon tumanida «Xavfsiz va sogʻlom yurt» keng qamrovli tezkor-profilaktik tadbiri doirasida koʻplab amaliy ishlarga qoʻl urilyapti. Jumladan, tumanda kriminogen vaziyati ogʻir boʻlgan «Yangiobod», «Surxon sohili», «Doʻstlik», «Qorayantoq» mahallalarida aholi bilan profilaktik suhbatlar olib borilmoqda.**



«Surxon sohili» mahallasining kirish-chiqish joyiga hamda aholi gavjum hududlarga 12 ta kuzatuv kamerasi oʻrnatildi, 45 ta xonadon qoʻriqqa olindi. Markaziy koʻchalardagi aholi gavjum joylarga esa tashvish tugmalari oʻrnatildi. Natijada mahallada bezorilik, oʻgʻrilik kabi jinoyatlarni keskin kamaytirishga erishildi. Bundan tashqari, koʻp qavatli uylarga ham tashvish tugmalari va kuzatuv kameralari oʻrnatildi.

– Tashvish tugmalari va xonadonlarning qoʻriqlovga olinishi oilaviy janjallarning ham oldini olmoqda, – deydi tuman IIB JXX HPB tashkiliy tahlil guruhi katta inspektori, leytenant Ibrohim Xoldorov. – Misol uchun, biror xonadonga nomaʼlum shaxs tomonidan oʻgʻrilik qilish maqsadida ortiqcha harakat yoki mahallada oʻzaro janjal oqibatida bezorilik sodir etilsa, fuqarolar tashvish tugmalari orqali tezkor patrul xizmati xodimlarini chaqirish imkoniga ega boʻladi.

Tumandagi 244 ta koʻp qavatli va yakka tartibdagi xonadon qoʻriqlovga olingan. Shuningdek, maktab-bogʻchalarga 18 ta, mahallalarning kirish-chiqish joylariga esa avto raqamlarni aniqlaydigan 55 ta, aholi gavjum hududlarda 128 ta va koʻp qavatli uylar oldiga 4 ta qidiruvdagi shaxsni aniqlovchi kuzatuv kamerasi oʻrnatilgan. Ular tuman IIB hamda mahalla profilaktika inspektori xizmat xonasiga integratsiya qilingan boʻlib, doimiy nazoratga olingan. Masalan, «Doʻstlik» mahallasidagi 59 ta kamera mahalla tayanch punktiga integratsiya qilingan boʻlib, profilaktika inspektori vaziyatni doimiy kuzatib boradi.

Ushbu tadbirlarning barchasi kriminogen vaziyati ogʻir hududlarda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan boʻlib, bugungi kunda yaxshi samara bermoqda.



**Feruza RAHMONQULOVA,**
**oʻz muxbirimiz.**
*Surxondaryo viloyati.*

Династия

# ИЗ ПОКОЛЕНИЯ В ПОКОЛЕНИЕ

**Семью Набиевых из махалли Чоршанбе хорошо знают многие жители области. Узы родства здесь неразрывно связаны с верностью службе – восемь представителей этой семьи посвятили себя службе в силовых структурах.**



Глава семейства Махмуджон Набиев – подполковник в отставке, участник боевых действий в Афганистане. Его сыновья Мансур и Азамат также достигли званий подполковника и майора соответственно, завершив службу в органах внутренних дел. Младший сын Умеджон является старшим специалистом специального отряда при МВД Республики Узбекистан.

Династия не ограничивается только прямыми наследниками. Брат Махмуджона – Муинжон Набиев – вышел в отставку в звании подполковника, ранее возглавлял Ургутский РОВД, а ныне трудится помощником хокима Самаркандского района. Еще один брат, Абдукаххор, также подполковник в отставке, многие годы служил в Министерстве обороны. Его сыновья Хушбахт и Абдунаби выбрали путь отца и связали свою профессиональную деятельность с правоохранительными органами.

Махмуджона Набиева в махалле по праву называют основателем «офицерской династии». Мы встретились с ним, чтобы узнать больше о его пути и семейных ценностях.

– За два года в Афганистане пришлось многое пережить, – вспоминает Махмуджон Набиев. – Однажды судьба уберегла от гибели: собрался припарковаться возле рынка, но что-то подсказало отъехать. Через несколько секунд на том месте прогремел взрыв. Второй взрыв застал меня врасплох... Очнулся уже в госпитале.

После возвращения на родину продолжил служебную деятельность, а позже – на пенсии – работал юристом и руководителем службы безопасности в различных организациях.

Сегодня Махмуджон Набиев активно участвует в деятельности Совета ветеранов УВД Самаркандской области, регулярно встречается с молодежью и школьниками, делясь жизненным опытом.

– Носить погоны – не просто профессия, – говорит он. – Это образ жизни, система ценностей, обязательство служить с честью.

**Замира БАЛТАЕВА,**
**соб. корр.**
*Самаркандская область.*

Пример для подражания

# СЕМЬЯ – ОСНОВА БЛАГОПОЛУЧИЯ И УСПЕХА

**Инспектор профилактики отдела профилактики правонарушений Пешкунского районного отдела внутренних дел майор Насим Богиев заслужил уважение руководства и коллег.**




Свыше 10 лет служит в органах внутренних дел. В его профессиональном становлении большую роль сыграли наставники – ныне подполковник в отставке Турсун Холиков и капитан в отставке Аваз Амонов.

Майор Богиев с 2022 года является инспектором профилактики в махалле Туркистон.

– Здесь проживает около пяти тысяч человек. Основной вид деятельности населения – животноводство, – рассказывает активиста схода граждан махалли Дилафруз Хакимова. – Мы тесно сотрудничаем с инспектором профилактики, совместно проводим разъяснительные мероприятия, оперативно решаем возникающие вопросы. Это способствует укреплению порядка и согласия.

Супруга нашего героя – Мехригиё Ширинова, кандидат филологических наук (PhD), доцент, в настоящее время является докторантом кафедры узбекского языкознания и журналистики Бухарского государственного университета. Она занимает должность ответственного секретаря научно-теоретического журнала «БухДУ илмий ахбороти», а также является редактором научно-методических изданий «Педагогик маҳорат» и «Психология».

Семья Богиевых большое внимание уделяет воспитанию детей – Фарзоны, Анисы и Имрона. Старшая дочь Фарзона проявляет интерес к литературе и иностранным языкам, активно участвует в интеллектуальных конкурсах и предметных олимпиадах, таких как «Ёш китобхон», «Китобхон болалар», «Зулфияхоним издошлари», «Ибн Сино издошлари», «Тафаккур синовлари», «Зукко китобхон».

Богиевы регулярно участвуют в смотре-конкурсе среди сотрудников ОВД «Образцовая семья», целью которого является пропаганда ценностей здорового и гармоничного общества. В 2022–2023 годах они занимали второе место на областном этапе, а в 2024 году стали победителями республиканского этапа в номинации «Семья-книголюб».

В настоящее время майор Насим Богиев продолжает обучение на историко-юридическом факультете Бухарского государственного университета по специальности «Юриспруденция».

**Мирзокул АХАДОВ,**
**соб. корр.**
*Бухарская область.*

«Postda» газетасининг 95 йиллигига



**Жаҳонгир ШАРОФБОЕВ**

Тошкент давлат университети ва Тошкент давлат юридик институтини тамомлаган. 2018–2024 йиллар давомида ИИВ Бирлашган таҳририятида масъул котиб лавозимида фаолият кўрсатган.

«Кўзим қароғида суратинг», «Ота ҳовлим» каби шеърий китоблар муаллифи.

***Ҳозирда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги тизимида меҳнат фаолиятини давом эттирмоқда.***

## ҚАДРДОН «POSTDA» ГАЗЕТАСИГА

Тарқатганча маърифат, зиё,
Элда олқиш олиб юрибсан.
Тўқсон бешга кирсанг-да, ҳатто,
Ўз постингда содиқ турибсан.

Ҳамкасбларим – фидойи, ўктам,
Қайрилмасин ўткир қалами.
Фош этишар тинимсиз, ҳар дам,
Жиноятнинг ёвуз оламин.

Эзгу йўлда сен билан бирга,
«Qalqon-Щит» ва «На посту» ҳамроҳ.
Ўрин йўқдир ҳеч хавотирга,
Ижодкорлар постида огоҳ.

Қадрдоним, сендан кўнглим тўқ,
Маърифат-ла уйғоқдир башар.
Тўқсон бешга кирамизми-йўқ,
Аммо «Postda» абадий яшар.

СУЛОЛА

# ОТА КАСБИНИНГ МУНОСИБ ДАВОМЧИСИ

**Тергов шундай мураккаб ва масъулиятли соҳасики, бу иш ходимдан, энг аввало, сабр-тоқат ва матонатни талаб этади. Барча соҳаларга оид айтайлик, соғлиқни сақлаш тизимига оид бирор жиноят ишини тергов қилишда масалага тиббиётчи кўзи билан, таълим соҳасига доир жиноят материалида педагог нигоҳи билан, қишлоқ хўжалиги йўналишига оид ишда эса агроном назари билан қараб, унинг мазмун-моҳиятигача кириб боролмаса, терговчининг иши пухта бўлмайди. Шу боис бу соҳа вакиллари ўқиб-изланишдан, малака оширишдан ҳеч қачон тўхтамаслиги керак.**



Қўқон шаҳар ИИБ ҳузуридаги Тергов бўлими жиноятларни тергов қилиш бўлинмаси катта терговчиси, майор Қаҳрамонжон Холматов ҳам ана шу мезонларга таяниб иш олиб бораётган соҳа фидойиларидан бири саналади.

Ўзбекистон туманидаги Нурсух қишлоғида туғилиб ўсган Қаҳрамонжон бежиз терговчилик касбини танламаган. У камолга етган оилани ҳамқишлоқлари «Терговчилар оиласи» деб ҳам атайди. Сабаби, падари бузруквори, истеъфодаги подполковник Жалолиддин Холматов ҳам ўттиз йилга яқин умрини ички ишлар органларининг тергов соҳаси билан чамбарчас боғлаб, эл-юрт осойишталигини таъминлаш, жиноятчилик ва ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишда бой амалий тажриба тўплаган. Бугун фарзандлар ва набиралари даврасида кексалик гаштини сурмоқда.

Амакиси, истеъфодаги майор Фазлиддин Холматов ҳам ҳуқуқшунослик йўналишида таҳсил олиб, ички ишлар органларида терговчи бўлиб ишлаган.

Ота изидан борган Қаҳрамонжон, мана 21 йилдирки, Қўқон шаҳар ИИБ ҳузуридаги Тергов бўлимида турли лавозимларда ҳалол ва самарали хизмат қилиб келмоқда. У дадасини тергов соҳасидаги биринчи устози деб билади ва тез-тез маслаҳатлар сўраб туради. Падари бузруквори нафақат ўғлидан, балки барча ёш терговчилардан маслаҳатини аямайди. Шогирдларни ҳамиша ҳалол, адолатли бўлишга, холис тергов олиб боришга чақиради.

Ота ўгитларига таяниб иш қилаётган лавҳамиз қаҳрамонининг ўзи ҳам бугун устоз даражасига етди. Қўқон шаҳар ИИБ ҳузуридаги Тергов бўлимида ўнлаб шогирдлари бор. Уларга маслаҳат ва тавсия бериш билан бирга, билмаганларини ўргатади. Китоб билан дўст тутинишга, тергов соҳасидаги билимларини ҳамиша ошириб боришга чақиради.

– Сўнгги йилларда мамлакатимизда инсонпарвар ислоҳотлар самараси ўлароқ, фуқароларнинг қонуний манфаатлари ишончли ҳимоя қилинадиган, фақат жазолаш эмас, хато қилганни тўғри йўлга соладиган мезонларига асосланган тизим яратилмоқда, – дейди лавҳамиз қаҳрамони. – Тергов ва суриштирув тизими соддалаштирилди, соҳага кириб келаётган замонавий технологиялар эса тергов сифати ва самарадорлигига ижобий таъсир кўрсатмоқда. Ишлаш учун барча шароит етарли. Биздан фақат касбга садоқат, ижро интизоми ва ҳалоллик талаб этилади. Шогирдларимга бу талабларни ҳар куни эслатишдан чарчамайман.

Терговчилар оиласининг забардаст вакили бўлган майор Қаҳрамонжон Холматовнинг касбга садоқати, ҳалоллиги ва фидойилиги ёш ходимлар учун чинакам ибрат мактабидир.

**Абдувосит СИДИҚОВ,**
**ўз мухбиримиз.**
*Фарғона вилояти.*

ОИЛА ТИНЧ – ЮРТ ТИНЧ

# ҲАМКОРЛИКДАГИ САМАРАДОРЛИК

**Самарқанд вилоят ҳокимлиги ҳамда вилоят ИИБнинг қўшма қарорига асосан, ҳамкор ташкилотлар билан биргаликда жорий йилнинг 17 февраль кунидан 3 май кунига қадар вилоятнинг 13 та шаҳар-туманларида ўтказилган «Хавфсиз оила» кенг қамровли махсус профилактик тадбирлар ҳам айнан оилалар мустаҳкамлигини таъминлашга қаратилганлиги билан аҳамиятлидир.**

– Фуқаролик ишлари бўйича судларда низолашиб келаётган 4523 та ҳамда оила-турмуш муносабатлари доирасида низолашиб келаётган 1421 та нотинч оила рўйхати шакллантирилиб, улар билан манзилли тезкор профилактик чора-тадбирлар олиб борилди, – дейди вилоят ИИБ ЖХХ ҲПБ бошлиғи ўринбосари, подполковник Нигора Ёдгорова. – Шунингдек, 7409 та хонадон ўрганилиб, улардаги 8024 нафар хотин-қиз билан профилактик суҳбатлар ўтказилди. 564 та оиладаги турли хил низолар муҳокама этилди, 3184 нафар соғлиқни сақлаш ҳисобида турган фуқаро билан якка тартибда профилактик ишлар амалга оширилиб, улардан 90 нафари мажбурий даволанишга юборилди. Оилавий зўравонликдан жабрланган 793 нафар хотин-қизга ҳимоя ордери расмийлаштириб берилди.



Эътиборли жиҳати шундаки, ҳамкорликда олиб борилган манзилли тарғибот ишлари натижасида хотин-қизлар томонидан содир этилган жиноятлар ўтган йилнинг мос даврига нисбатан 12,0 фоизга камайишга эришилди. Қотиллик, оғир тан жароҳати етказиш, ўртача оғир шикаст етказиш, шунингдек, талончилик, босқинчилик ҳамда безорилик жиноятлари содир этилишига йўл қўйилмади. Бундан ташқари, хотин-қизларнинг ўз жонига қасд қилиш ҳолатлари ўтган йилнинг шу даврига нисбатан 28,6 фоизга камайишга эришилди.

Айни пайтда ҳам аниқланган муаммолар алоҳида назоратга олиниб, уларни бартараф этишга қаратилган ижтимоий профилактик чора-тадбирлар давом этмоқда.

**Умида МАМАДАЛИЕВА.**
*Самарқанд вилояти.*

XIZMATLARDA

# HARAKATDA HUSHYORLIK MUHIM

**Samarqand viloyati Transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi, uning joylardagi bo'linmalari xodimlari belgilangan hududlar va transport infratuzilmasi obyektlarida jinoyat hamda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, yo'lovchi va yuk poyezdlarining xavfsiz harakatlanishini ta'minlash maqsadida sidqidildan xizmat olib borishmoqda.**



Lavhamiz qahramoni – kapitan Farhod Hasanov ayni paytda mazkur boshqarmaning «Ziyovuddin» bekatida xavfsizlikni ta'minlash bo'linmasi huquqbuzarliklar profilaktikasi guruhi inspektori lavozimida faoliyat yuritadi.

– Xizmat hududimning asosiy qismi Paxtachi tumaniga to'g'ri keladi, – deydi kapitan Farhod Hasanov. – Ya'ni, «Ziyovuddin» bekati mazkur tumanning «Istiqlol» mahallasida joylashgan. Shuningdek, hududdagi 33 kilometrdan iborat temiryo'l izlari yaqinida 18 ta mahalla, 18 ta maktab mavjud. Aholining belgilangan tartib-qoidalarga rioya etishi juda muhim. Chunki soniyalardagi e'tiborsizlik ham inson hayotiga xavf solishi, kutilmagan ko'ngilsizliklarga sabab bo'lishi mumkin.

Ha, inspektorning ta'kidida jon bor. Temiryo'l atrofida chorva mollarini boqmaslik, temiryo'l izlariga qattiq jism qo'ymaslik, yo'lovchi poyezdlariga tosh otmaslik bo'yicha aholi, ayniqsa, yosh-





lar ishtirokida profilaktik suhbatlar o'tkazish turli ko'ngilsiz holatlarning oldini olishda ayni muddaodir.

– Mahallamizdan temiryo'l o'tgan, – deydi Mirzo Ulug'bek nomidagi mahalla fuqarolar yig'ini raisi Hasan Umurzoqov – Yettidan yetmish yoshgacha bo'lgan aholi kapitan Farhod Hasanovni yaxshi taniydi. Chunki u barchaga temiryo'l izlari yaqinida tartib-qoidalarga amal qilish to'g'risida batafsil tushuntirishlar beradi.

Sohadagi 13 yillik faoliyati mobaynida xizmat vazifalarini fidoyilik bilan bajarib kelayotgan qahramonimiz rafiqasi Dildora Mavlonova bilan birga Ra'noxon, Shahzodaxon va Shohjahonni tarbiyalamoqda. Uzoq yillar yoshlarga ilm-u ziyo ulashib kelgan uning pedagog ota-onasi Xo'jamurod Hasanov hamda Turintosh Ochilovalar o'g'lini xizmatni to'kis bajarishga, bildirilgan ishonchni hamisha oqlashga undaydi.

**Gulnoza TURG'UNBOYEVA,**
**o'z muxbirimiz.**
*Samarqand viloyati.*

DOLZARB MAVZU

# ODAM SAVDOSI:
## uning omillariga qarshi kurashish kerak



**Odam savdosi global muammo bo'lib, millionlab insonlarning hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jinoyat inson huquqlarining qo'pol tarzda buzilishidir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Yevropa Kengashi ma'lumotlariga ko'ra, odam savdosi dunyodagi eng daromadli jinoyat turlaridan biri hisoblanadi.**

Qashshoqlik, ta'limning yetishmasligi va cheklangan iqtisodiy imkoniyatlar mazkur jinoyatning asosiy omillari bo'lib xizmat qiladi. Odam savdosi o'z navbatida insonlarni kamsitishga olib keladi va gender tengsizlikni kuchaytiradi. Unga qarshi kurashishda jabrlanganlarni himoya qilish muhim ahamiyatga ega.

Odam savdosining qurbonlari ko'pincha ayollar va bolalar bo'lib, o'z huquqlari, shaxsiy xavfsizligi hamda erkinligini yo'qotadilar. Ular tahdid ostida bo'lishdan aziyat chekadi, jismoniy va ruhiy shikastlanishlarga duch keladi. Bunday larga tibbiy, psixologik va ijtimoiy yordam ko'rsatish kerak, shuningdek, ularning huquqlari himoya qilinishi lozim.

Bolalar savdosi bola huquqlarining eng qo'pol tarzda buzilishi bo'lib, mudhish jinoyatdir. Hech bir davlat ushbu jinoyatdan himoyalanmagan. O'tgan yillar davomida bir qator huquqiy va amaliy chora-tadbirlar ko'rilganiga qaramay, hamon bolalar ushbu jinoyatdan jabr chekmoqda. Odam savdosi bilan bog'liq holatlarning har uchinchisi qurboni bolalardir. Demak, mazkur jinoyatchilik turiga qarshi global sa'y-harakatlar hali ham yetarli emas.

2013-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 30-iyul «Butunjahon odam savdosiga qarshi kurashish kuni» deb e'lon qilingan. Xalqaro huquq odam savdosiga qarshi kurashda kuchli vosita hisoblanadi. Odam savdosini aniqlash, uning oldini olish va jinoyatchilarni javobgarlikka tortish bo'yicha eng nufuzli va so'nggi xalqaro hujjatlar bu Birlashgan Millatlar Tashkilotining Transmilliy Uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasi va unga bog'liq ikki protokoldir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, odam savdosining oldini olish uchun inson huquqlari bilan bog'liq muammolarni hal qilish zarur. Qashshoqlik, ta'lim yetishmasligi va ishsizlik, shuningdek, gender tengsizlik, turli tizimlarda inson huquqlarining buzilishi kabi masalalarning yechimini topish kerak. Shu bilan birga, inson huquqlari bo'yicha xabardorlikni oshirish, qonunlarni takomillashtirish, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaxshilash va ta'limni rivojlantirish kabi bir qator vazifalarni bajarish lozim. Shunda nafaqat odam savdosiga imkon beruvchi omillarni, balki shu kabi ko'plab muammolarni bartaraf eta olamiz.



**Madinabonu AXMATBOYEVA,**
**Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti talabasi.**

YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI

# XOTIN-QIZLAR HIMOYACHISI

**Oltinko‘l tumani IIB HPB xotin-qizlar masalalari bo‘yicha katta inspektor, leytenant Mohinsa Ashurovaning tabiatan tartibli va tirishqoqligi xizmatda unga bir qancha yutuqlar keltirdi.**



– Sohada xizmat qilish ayol xodima uchun oson emas, – deydi M. Ashurova. – Xizmat vazifam jiddiy yondashishni talab etadi. Shunday paytda turmush o‘rtog‘im, qaynota-qaynonam meni nafaqat tushunadi, balki qo‘llab-quvvatlaydi. O‘sib-unishimga sharoit yaratib bergani uchun ularga rahmat aytaman.

Oltinko‘l tumanida 130 ming nafarga yaqin xotin-qiz yashaydi. Mohinsa ularning har biri uchun mas’ul va javobgar. Chunki ayolning tinchligi bu oila, mahalla, yurtning xotirjamligi demakdir.

Leytenant Mohinsa Ashurova ko‘proq tazyiqqa duch kelgan xotin-qizlar bilan ishlaydi. Ularga huquqlari qonun yordamida himoyalanganligini tushuntiradi. Zo‘ravonlikni yuzaga keltirgan muhitni o‘rganib, bartaraf etuvchi zarur choralar ustida izlanadi. Yoshgina qizning saboti, dadil so‘zlari jabrlangan ko‘plab xotin-qizlarda ishonch va umid tuyg‘ularini uyg‘otadi. Ortida himoya qiluvchilar borligidan ko‘ngillari taskin topadi ularning. Profilaktik suhbatlar, zarur chora-tadbirlar tufayli jabrlangan ko‘plab xotin-qizlarning masalalari ijobiy hal etilmoqda.

– Yana bir dolzarb muammo – ayollarimizning ilm egallamasligi, – deydi leytenant M. Ashurova. – Shuning uchun oilaviy muhitdan tashqariga chiqa olishmaydi. Janjallarning aksariyati bekorchilikdan kelib chiqadi. Har bir xotin-qiz qaysidir kasbning boshini tutishi, sport bilan shug‘ullanishi, xullas, nima bilandir band bo‘lishi kerak. O‘qimishli, zukko ayol hech qachon vaziyatni zo‘ravonlik darajasigacha olib bormaydi.

Ha, Mohinsaning gaplarida jon bor. Hayotiy kuzatuvlar asosida tug‘ilgan fikrlar bu. Forma kiyganda g‘ururlanuvchi, jabr chekkan ayolni ko‘rganda himoyachiga aylanuvchi fidoyi xodimaning yagona maqsadi – o‘z yurtiga sadoqat bilan xizmat qilish.

**Nigora TO‘XTAMATOVA,**
**o‘z muxbirimiz.**

*Andijon viloyati.*



# MAHALLANING JONKUYARI

Olmaliq shahridagi «Muso Jalil» mahalla fuqarolar yig‘iniga xizmat ko‘rsatuvchi profilaktika inspektori, katta leytenant Solijon Anorqulov tizimda faoliyatini boshlaganiga atigi uch yildan oshdi.

Xizmatni inspektor-psixolog lavozimida boshlagan yosh xodimga podpolkovnik Hakimjon Shodiyev ustozlik qildi.

Hozirda 2700 nafardan ortiq aholi yashaydigan mahallada xizmat qilayotgan osoyishtalik posboni profilaktik hisobda turuvchi shaxslar bilan muntazam tushuntirish ishlarini olib boryapti. Joriy yil boshidan bugungi kungacha 13 kishini ishga joylashtirdi. Ichkilikbozlikka ro‘ju qo‘ygan bir necha shaxslarni Ixtisoslashgan narkologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Toshkent viloyati filialiga davolanishga yotqizdi. Shuningdek, mahallaning gavjum joylari, ko‘p qavatli uylar va umumiy ovqatlanish shoxobchalari yoniga «tashvish tugmalari» o‘rnatilishiga bosh-qosh bo‘ldi.

Qilingan sa’y-harakatlar o‘z natijasida «qizil» toifada turgan mahalla o‘tgan yili «sariq» toifadagi mahallalar qatoriga kiritildi. Joriy yilning o‘tgan davrida esa, sodir etilgan bitta jinoyat ham «issiq izida» ochilib, aybdorga nisbatan jazo muqarrarligi ta’minlandi. Galdagi vazifa – «yashil» toifadan joy olish. O‘ylaymizki, profilaktika inspektorining bu boradagi urinishlari ham o‘z samarasini beradi.

**Mixli SAFAROV,**
**kapitan.**

*Toshkent viloyati.*

CHEKKA HUDUDLARDA

# OLIS MANZIL OSOYISHTALIGI UCHUN

**Kriminogen vaziyatni jilovlash, jamoat tartibini saqlash, mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish, «qizil» toifadagi mahallalarda profilaktik tadbirlarni yanada jadallashtirish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hamda amaliy yordam ko‘rsatish maqsadida viloyat IIB ishchi guruhi Dehqonobod tumanida bo‘ldi.**

Ishchi guruhi tomonidan Prezidentimizning 2025-yil 3-yanvardagi qarori ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlar o‘rganildi. Xususan, aholi gavjum joylarga, bozorlar, ko‘ngilochar maskanlarga videokuzatuv kameralari va tashvish tugmalari, ko‘p qavatli uylarga domofonlarning o‘rnatilishi, boshqarma tezkor vaziyatlar markaziga, tuman Ichki ishlar bo‘limi va profilaktika inspektori xonasiga integratsiya qilinishi ko‘zdan kechirildi. Tumanda «Namunali ko‘cha», «Namunali yo‘lak»larni yaratish orqali osoyishtalikni ta’minlash, jinoyatlarning oldini olishda nazoratdagi va jinoyat sodir etishga moyil shaxslarni individual o‘rgangan holda, ularning ijtimoiy moslashuviga, tuzalish yo‘liga o‘tishiga ijtimoiy yordam berish bo‘yicha xodimlarga amaliy yordam berildi.

Amalga oshirilgan ishlar, o‘rganishlar natijalari tuman Ichki ishlar bo‘limida rahbarlar va xodimlar ishtirokida bo‘lib o‘tgan yig‘ilishda tanqidiy-tahlil etilib, xavfsiz muhit va osoyishta hayotga zamin yaratish, jamoat tartibini saqlash, kriminogen vaziyatni jilovlash borasida mas’ullarga aniq vazifalar yuklatildi.




Shundan so‘ng tumanda «Xavfsiz va sog‘lom yurt» keng qamrovli tezkor-profilaktik tadbiri doirasida xizmatga chiqayotgan xodimlarga yo‘riqnoma berildi.

Qayd etildiki, tezkor-profilaktik tadbir davomida bir qator qonunbuzarlik holatlari aniqlandi. Jumladan, 5 nafar fuqaro yonida o‘tkir tig‘li jism olib yurgani aniqlanib, tegishli choralar ko‘rildi. Qolaversa, «Chashmaimiron» mahallasida yashovchi fuqaro uyida ov qurolini saqlab kelayotgani uchun, «Oydin yo‘l» mahallasida istiqomat qiluvchi fuqaro esa qo‘shmachilik jinoyatini sodir etgani uchun Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan jinoyat ishi qo‘zg‘atildi.

**Sodiq RAHIMOV,**
**o‘z muxbirimiz.**

*Qashqadaryo viloyati.*

Аспект профилактики

# ОТВЕСТИ ОТ НЕВЕРНОГО ШАГА

**В Республике Каракалпакстан прошел месячник профилактики правонарушений под названием «Турмуш». Он был организован в соответствии с совместным распоряжением Министерства внутренних дел Каракалпакстана и Управления Ассоциации махаллей.**

В ходе месячника в махаллях города Нукуса были изучены условия проживания семей, особое внимание уделено духовно-нравственному климату и вопросам воспитания детей. В обследованиях приняли участие члены комиссий по укреплению семейных ценностей, активисты и представители махаллинских структур.

В результате выявлены семьи, нуждающиеся в особом внимании, случаи конфликтов между родственниками. По каждому факту приняты меры. Организованы юридические консультации, оказана материальная помощь малообеспеченным гражданам. При содействии профильных организаций проведены ярмарки вакансий.

В частности, в Нукусе трудоустроены две женщины, еще одной оказана помощь в получении субсидии на открытие бизнеса. Трем женщинам помогли решить семейные проблемы. Двенадцати пострадавшим от насилия женщинам выданы охранные ордеры.



Следует отметить, что выдача охранного ордера не всегда приводит к прекращению противоправных действий. Несмотря на разъяснительную работу, в отдельных случаях нарушители продолжают игнорировать предписания. В таких ситуациях принимаются меры по ужесточению ответственности. Так, житель схода граждан «Кум овул» И. Б. после несоблюдения требований охранного ордера предстал перед судом по уголовным делам.

Также в рамках профилактической работы проведены индивидуальные беседы с ранее судимыми женщинами, склонными к совершению правонарушений.

**Айжамал НАМЕНОВА,**
**подполковник.**
*Республика Каракалпакстан.*

# УКРЕПИТЬ ДОВЕРИЕ

**В махалле Фаровон, расположенной в центре Сырдарьинского района, проживают около 2,5 тысячи человек, которых объединяют чувство локтя и взаимопомощь. В решении насущных вопросов махаллинцев немалая заслуга инспектора профилактики капитана Азизжона Хамидова.**

Выходец из кишлака Лалмикор Галляаральского района, капитан Хамидов начинал службу в Управлении обеспечения безопасности на транспорте. После перевода в подразделение профилактики правонарушений, вместе с семьей переехал в махаллю Фаровон, где ему предоставили служебный дом.

Перед капитаном стояли непростые задачи: изучить ситуацию на участке, наладить диалог с жителями, укрепить сотрудничество с общественностью. Махалля в криминальном плане считалась сложной, что требовало от инспектора максимальной самоотдачи.







Хозяйские дела пришлось отложить.

Основной задачей было повышение правосознания жителей, формирование нетерпимого отношения к любым противоправным действиям. Важно было также укрепить атмосферу добрососедства и взаимопомощи, оказать поддержку нуждающимся в помощи. И все это осуществлялось в тесном контакте с активом махалли, с участием старейшин, много повидавших на своем веку, способных дать мудрый жизненный совет .

– Раньше в махалле было свыше десяти неблагополучных семей, – рассказывает председатель схода граждан Акбар Пирназаров. – Благодаря совместной с инспектором профилактики работе в их домах вновь воцарились благополучие.

Лишь спустя несколько месяцев Азизжон смог заняться обустройством дома. Вместе с супругой высадил сад, разбил огород, обустроил цветники. Своими руками капитан отремонтировал жилище: отштукатурил и покрасил стены, обновил внутреннюю отделку.

Азизжон Хамидов доказал: укрепить доверие в обществе можно простыми, но искренними делами.

**Абдурахмон МУСТАФОКУЛОВ,**
**соб. корр.**
*Сырдарьинская область.*

XIZMAT JOYI – QOROVUL QO'SHINLARI

# BURCHGA SADOQAT BILAN




**Lavhamiz qahramoni kichik serjant Mirjalol Qarshiyev. Samarqand viloyatining Ishtixon tumanida tavallud topgan. U o'rta maxsus bilim yurtini tamomlagach, IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli Buxoro viloyatidagi 7536-harbiy qismda yigitlik burchini o'taydi. Xizmat jarayonida professional harbiy bo'lishni maqsad qiladi. Mirjalol bu istagini rahbariyatga bildirgach, namunali askarni kontrakt asosida xizmatga taklif qilishadi.**

M.Qarshiyev o'z kasbining mohir ustasiga aylanishida ustozi katta serjant Odil Pozilovdan minnatdor.

O'n ikki yildan buyon faoliyat ko'rsatib kelayotgan M. Qarshiyev mazkur harbiy qism 3-batalyon xizmat itlari mutaxassislar guruhi 2-seksiya komandiri lavozimida xizmatni davom ettirib kelayotir.

– Kichik serjant Mirjalol Qarshiyev boshqalarga har tomonlama ibratdir, – deydi guruh komandiri, serjant Otabek Ro'ziyev. – Bo'sh paytlari sport bilan shug'ullanadi. Xizmat itlarini iz qidiruv va antiterror yo'nalishlari bo'yicha o'rgatishda hamda askarlarni jangovar xizmatga tayyorlashda jonbozlik ko'rsatyapti. Shu bilan birga, turli musobaqalar va ko'rik-tanlovlarda ham faol ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egallab kelmoqda. O'tgan yili «Eng ilg'or ta'qib qilish guruhi» ko'rik-tanlovida ham g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Mirjalolning izdoshlari orasida oddiy askar Asadbek Qurbonaliyev ustozi singari ko'pkurash musobaqalari va tanlovlarda faol qatnashib, faxrli o'rinlarni egallab kelmoqda.

Inson baxtining to'kisligi oilasiga ham bog'liq. Mirjalol ham namunali oila boshlig'i. Turmush o'rtog'i Orzugulxon bilan birgalikda Javohir va Anvar ismli o'g'illarni tarbiyalab, voyaga yetkazishmoqda. O'ylaymizki, uning farzandlari ham otasi kabi jamiyatga nafi tegadigan insonlar bo'lishadi.

**Mirzoqul AHADOV,**
**o'z muxbirimiz.**

*Buxoro viloyati.*

SPORTNI SEV, SPORT BILAN YASHA!

# QALBI YORUG', NIYATI ULUG'

**O'n uchta jang, o'n ikkita nokaut. Bu hayratlanarli natija – hayotini sport bilan birga el-yurt osoyishtaligiga bag'ishlagan professional bokschi, Sirdaryo viloyati IIB Tezkor vazifalarni bajarish safarbar otryadi safdor xodimi, kichik serjant Otabek Xolmatovning jahon arenalarida qo'lga kiritgan yutug'i.**



Farzandi sportchi bo'lishini xohlaydigan ko'pchilik otalarning hammasiyam ularga yetarli sharoit yaratib bermaydi. Shuhrat Mansurov esa o'g'li Otabekning 6 yoshligida boksga qiziqishini sezib, uni Baxt shahridagi sport maktabiga olib bordi. Murabbiy Alisher Abdullayevga uchrab, «Bolamga boksning hamma sir-asrorlarini o'rgating», deb topshirdi. Shu bois, ba'zan ko'zining bir cheti ko'karib yoki burni qonab kelgan kunlari bolasiga achinsa-da, teskari qarab ko'zini yumdi. Shunday qilib, ota-bola yagona maqsad sari dadil odimladi. Murabbiy esa yosh sportchiga «Bokschining kuchi jismoniy quvvatida emas, balki shijoat va irodasida, g'alabaga bo'lgan qat'iy ishonchida» deya qayta-qayta uqtiraverdi. Bu esa undagi g'alabaga bo'lgan ishonchni yanada mustahkamlayverdi.

Otabek 7-sinfga o'tganida otasi uni Toshkentdagi Olimpiya zaxiralari sport maktabiga olib bordi. Mazkur maktabda u boks texnikasi va taktikasini o'zlashtirish bo'yicha professional murabbiy Temur Axbayevning sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgach, shu yerda bir necha yil qattiq shug'ullandi. Maktabni tugatgach, 2016-yili Chirchiqdagi Jismoniy tarbiya va sport universitetiga o'qishga kirdi.

2019-yilda o'smirlar o'rtasida bo'lib o'tgan mamlakat chempionatida 49 kilogramm vazn toifasida ishtirok etdi. To'rtta jangda to'rtta g'alabani qo'lga kiritib, «O'zbekiston chempioni» degan sharafli unvonga sazovor bo'ldi. Bu esa uning jahon arenasiga chiqishiga keng yo'l ochdi. Shu bois u aynan o'sha yili Qozog'istonda bo'lib o'tgan Osiyo o'yinlarida boks bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi safida qatnashib, 52 kilogramm vazn toifasida bir necha bor ringga chiqdi. Qozog'iston, Xitoy va hindistonlik raqiblari ustidan g'alaba qozondi. Lekin finalda imkoniyatni boy berib, chempionatning kumush medaliga sazovor bo'ldi. AQSHdan professional boks bo'yicha kelgan taklif asosida ikki yil davomida u yerda 57 kilogramm vazn toifasida 11 ta professional jang o'tkazib, ularning 11 tasida raqiblarini nokautga uchratdi.

Lavhamiz qahramoni 2020-yilda Rossiyaning Sankt-Peterburg shahrida bo'lib o'tgan jahon chempionatida raqibini nokautga uchratib bronza medali sohibi bo'ldi.

Qalbi quyoshdek yorug', niyati tog'lardek ulug' kichik serjant Otabek Xolmatov yutuqlari manbayini jang qanchalik beshafqat kechsada, sport ellar orasida tinchlik, odamlar o'rtasida do'stlik elchisi ekanini bir zum unutmaslikda, deb biladi.

**Abdurahmon MUSTAFOQULOV,**
**o'z muxbirimiz.**

*Sirdaryo viloyati.*

ИИВ Тезкор қидирув департаменти раҳбарияти ва шахсий таркиби Жиноят қидирув хизмати бошлиғи ўринбосари, полковник Нодиржон Абдуллажоновга онаси
**МУҲАРРАМ аянинг**
вафоти муносабати билан ҳамдардлик билдиради.

БИР ТУМАН ТАРИХИ

# БУҒДОЙ ОРОЛИ

**1926 йил 29 сентябрда Самарқанд вилоятида Янгиқўрғон тумани ташкил қилинган. 1931 йилда туманга Ғаллаорол номи берилди. Маълумотларга кўра, ҳудуд чеки кўринмайдиган ғаллазорлар билан қопланганлиги сабаб Йўлдош Охунбобоев туманни «Ғаллаорол» деб аташни таклиф қилган. 1973 йилда Жиззах вилояти юзага келтирилгач, Ғаллаорол мазкур вилоят таркибига киритилади. Яна бир маълумот: 1957–1971 йиллар оралиғида Бахмал тумани Ғаллаорол ҳудуди ҳисобланган.**

Ғаллаорол мамлакатимизнинг қадимий гўшаларидан бири саналади. Чунончи, тарихчилар Ал Истахрий, ибн Ҳавқал, Муқаддасий қаламига мансуб манбаларда ушбу манзилга оид маълумотлар келтириб ўтилади. Бинобарин, ҳудудда Уструшона давлати таркибига кирувчи йирик Харакана шаҳри бўлгани, бу ердан араб давлатларини Чин билан боғловчи Буюк ипак йўлининг иккита йўналиши ўтгани баён қилинган.

Бу фикрларни Ойдинсойтепа, Қинғиртепа, Алмантепа, Жалмантепа, Лопоқтепа, Нушкент каби жойлардан топилган антик давр ҳамда ўрта асрларга оид ёдгорликлар, хусусан, турк хоқони зарб қилдирган VII асрга дохил танга, бурама шохли қўчқор ҳайкалчаси, қўй боши кўринишидаги идишлар ва кўза қолдиқлари тасдиқлайди. «Бобурнома»да ҳам Ғаллаорол ҳақида сатрлар мавжуд.

Тоғларида эса бир неча минг йиллар илгари чизилган тош суратлар, шунингдек, тепаликлардан ясалган куёш соати қолдиқлари бор. Туманда тадқиқот ўтказган тарих фанлари доктори Яҳё Ғуломов, академик Михаил Массон ва бошқа олимлар ҳудуд аҳолисининг маданияти юксак бўлгани, иқтисодиёт ривожланганига оид талқинларни илгари суришган.





Амир Темур дарвозаси ҳам қадимий жойлардан биридир. Чунончи, бу ерда қудратли ҳукмдор номи билан юритиладиган ғор бор. Мазкур дарада мамлакатнинг қоровуллик ва хабарлаш пости бўлганлиги ҳамда саркарда қўшини билан қўним топгани учун манзил улуғ сиймо шахсига боғланади.

Худди шундай, даранинг кунботар қисмида араб алифбосидаги тошбитик мавжуд. Уни чериклари билан юришдан қайтаётган Мирзо Улуғбек ёздирган. Тошда темурий ҳукмдор бошчилигида ўтган жанглардан бирининг қисқа тафсилоти баён қилинган.

Жиззахликлар бу жойни Илонўтди, деб ҳам атайдилар. Айтишларича, ўтмишда бир неча километрга чўзилган илонлар галаси мазкур дара орқали кўчган экан. Шу ўринда яна бир маълумот: дарадаги темирйўл 1886 йилда қурилган. Ўша пайтларда буғ двигателли поездлар хизматидан фойдаланилган бўлса, ҳозирда бу йўллардан тезюрар «Афросиёб» гўёки учиб ўтади.

Туманда ўзбек уруғлари, табиат ва жойларнинг ўзига хосликларини ўз номига айлантирган қишлоқлар кўп. Қипчоқсув, Қангли, Туёқли, Турк, Хитой изи, Маллабулоқ, Олмали, Маржонбулоқ, Жийдали, Тўшбулоқ, Шўрча, Кўчарбулоқ, Бахмалсой сингари аҳоли пунктлари шулар жумласидан. Айтганча, Ғаллаоролдан Махмур Коризий, Убайдуллоҳ Аламкаш, Саидхон Муҳиддин қори ўғли, Ғозибек Муҳаммадёр ўғли, Нарзулла муфтий Шарофиддин ўғли Нарзий, Нарзулла Умрзоқ ўғли Нарзий, Иномхон Абдулкарим ўғли Маҳжур сингари шоирлар етишиб чиққан.

**Алижон АБДУСАТТОРОВ,**
**ўз мухбиримиз.**



TERGOVNI BILIMDONLAR OLIB BORADI



# XOLISLIK VA HALOLLIK

**Har bir muvaffaqiyatli yakunlangan jinoyat ishining ortida tergovchining zahmatli mehnati yotadi. Sho'rchi tumani IIB huzuridagi Tergov bo'linmasi tergovchisi, katta leytenant Sarvarbek Jabborov o'z kasbiga sadoqat va mas'uliyat bilan yondashib, adolatni ta'minlash uchun harakat qiladi.**

Ichki ishlardagi xizmat faoliyatini 2022-yilda Uzun tumani IIB huzuridagi tergov guruhida surishtiruvchi sifatida boshlagan Sarvarbek Jabborov qisqa fursat ichida o'zini mas'uliyatli va bilimdon mutaxassis sifatida ko'rsata oldi. Uning asosiy yo'nalishlaridan biri firibgarlik bilan bog'liq ko'p epizodli jinoyat ishlarini tergov qilish bo'ldi. Bu jarayonda u har bir holatni puxta o'rganib, adolatni tiklashga intilib ish yuritdi.

Uzun tumanida bank xodimi P.B. hujjatlarni soxtalashtirib, birinchi marta 30 nafar, ikkinchi marta 43 nafar kishining nomidan kredit rasmiylashtiradi. Barcha kredit mablag'larini o'zining shaxsiy maqsadlariga ishlatib yuborgan. Qo'l telefoniga qarzdorlikni to'lash haqidagi xabarlar kela boshlaganidan hayratlangan fuqarolar avval bankka, so'ng tuman ichki ishlar bo'limiga ariza bilan murojaat qilishadi. Bu ishni tergov qilgan Sarvarbek tekshiruvlar, yuzlashtiruvlardan so'ng P.B.ning qonunga zid harakatlarini isbotladi va uni qonun hukmiga topshirdi.

– Tergovchi – jamiyatda adolatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydigan shaxsdir, – deydi Sarvarbek. – Shu bois u qonunlarni chuqur bilishi va ularni to'g'ri tatbiq qila olishi kerak. Shuningdek, har qanday tergov jarayonida betaraflik va xolislikni saqlash zarur. Eng muhimi, shaxsiy qarashlar yoki tashqi bosimlarga berilmaslik kerak. Men ham ish jarayonida ustozlarim o'rgatgan ana shu o'gitlarga amal qilishga harakat qilaman.

Lavhamiz qahramonining ish uslubidagi aniqlik, tahlilchanlik va qonuniylikka qat'iy rioya qilish qobiliyati unga ko'plab murakkab jinoyatlarni ochishda yordam beradi. Albatta, uning bu fidoyiligi viloyat IIB hamda Ichki ishlar vazirligi tomonidan bir necha marotaba rag'batlantirildi.

Tergovchidan faqat bilim va tajriba emas, balki halollik, sabr-toqat va qonunga sadoqat ham talab qilinadi. Sarvarbek Jabborov kabi o'z ishiga sidqidildan yondashadigan tergovchilar orqali jamiyatda qonun ustuvorligi ta'minlanib, fuqarolarning huquq va erkinliklari himoya qilinadi.

**Feruza RAHMONQULOVA,**
**o'z muxbirimiz.**
*Surxondaryo viloyati.*

«XAVFSIZ VA SOG‘LOM YURT»



# QISMATLARNI QORA QILGAN QILMISHLAR



Poytaxtimizning Uchtepa tumanida «Xavfsiz va sog‘lom yurt» keng qamrovli tezkor profilaktik tadbiri davomida, tuman IIB 1-sonli IIB hududidagi Jurjoniy nomli mahallaga xizmat ko‘rsatuvchi profilaktika katta inspektori, kapitan A. Rahimov bir jinoyatni «issiq izida» ochishga muvaffaq bo‘ldi. U mahalla hududida giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni sotishga mo‘ljallangan ijtimoiy tarmoqdagi kanalini targ‘ib qiluvchi reklamalarni yopishtirib yurgan P.D.ning qilmishi yuzasidan hujjatlarni to‘plab, jinoyat ishlari bo‘yicha Uchtepa tuman sudiga taqdim etdi.

Shuningdek, «O‘rikzor» mahallasiga xizmat ko‘rsatuvchi profilaktika katta inspektori, kapitan O.Razzoqov va profilaktika inspektori, leytenant Sh.Komiljonovlar «Ko‘ksaroy» mahallasi hududidagi bruschatka ishlab chiqarish sexida nazorat ishlarini olib borishayotganda, sexning tom qismida 5 tup kannabis giyohvandlik vositasi parvarish qilinayotganligini aniqlashgan. Holat yuzasidan 1986-yilda tug‘ilgan G.D.ga nisbatan hujjatlar to‘planib, tergov bo‘limiga topshirilgan.

**Sarvar SOBIROV,**
**o‘z muxbirimiz.**
*Toshkent shahri.*

TERGOV AMALIYOTIDAN

# FE’LI TO‘G‘RINING TOPGANI OSHGA QO‘LI EGRINING TOPGANI BOSHGA YETADI

**«Nafs kishini gunoh ishlarga boshlovchi josusdir», deydi donishmandlardan biri. Bu achchiq haqiqatdan ko‘z yumib bo‘lmaydi. Birov nafsini qondirish uchun o‘g‘rilikka qo‘l ursa, boshqasi firibgarlik qiladi. Qolaversa, poraxo‘rga ham aylanishadi, qotillik qilishgacha ham borishadi.**

**Bugungi hikoyamiz «qahramon»lari o‘g‘rining so‘nggi manzili aniqligini bila turib, jinoyatga qo‘l urishgan. Ularning ikkisi ham muqaddam sudlangan, ishsiz bo‘lsa, ikkinchisi ishli bo‘la turib, oilaviy kelishmovchilikni ro‘kach qiladi. Aslida ikkalasining o‘xshash tomoni: ichkilikka ruju qo‘ygani va oson pul topishni odat qilganidir. Boshqalarga saboq bo‘lar degan umidda voqea qanday yuz bergan bo‘lsa, xuddi shunday hikoya qilmoqchimiz. Faqat voqea ishtirokchilarining ism-shariflarini o‘zgartirdik, xolos.**

## BIRINCHI VOQEA

Haydar tushlikka tuman markazidagi oshxonaga kirdi. Chunki bu yerda tanish ayoli ishlaydi. U ayolga spirtli ichimlik buyurdi va gazak uchun «himmating» deganday qarab qo‘ydi. Ayol 150 gramm aroq, sho‘r bodring va bir dona somsa olib keldi. Ko‘p o‘tmay yana 100 gramm aroq aytdi. Bu safar ayol hech narsa bermadi. Aksincha, uni oshxonadan chiqarib yubordi.



Bu Haydarga alam qildi. Ko‘cha kezib, nima qilarini bilmay garangsib yurganda, eski odatini qo‘msab qoldi. Shu bois egasiz binolarni axtarib, «qulay sharoit» izlay boshladi. Stomatologiya binosining eshigi qulflanmaganligini ko‘rib, o‘zini darrov ichkariga urdi. Ko‘p o‘tmay, ayollar sumkasini ko‘tarib chiqdi.

Haydar sumkadagi narsalarni shosha-pisha xontaxtaga to‘kdi, ayollar atir-upalari, ikki dona plastik karta va boshqa hujjatlarni ko‘rgach, hafsalasi pir bo‘ldi.

O‘g‘irlangan sumka hamshira N. Nasriyevaniki edi. Sumkada bir million so‘mlik ayollar atir-upalari, ikki dona plastik kartaning ichida 600 ming so‘m, o‘zining fuqarolik pasporti va qizining tug‘ilganlik haqidagi guvohnomasi bor edi. U ishdan qaytmoqchi bo‘lganida sumkasi yo‘qligini bilgach, Qorako‘l tumani IIBga «102» tizimi orqali murojaat qiladi.

– «Eski qal’a» mahallasida joylashgan stomatologiya binosida sodir etilgan o‘g‘rilik jinoyati bo‘yicha hodisa joyidagi videokuzatuv kamerasini ko‘zdan kechirganimizda, o‘g‘ri shu mahallalik H. To‘yev ekanligi ma’lum bo‘ldi. So‘ng xolislar ishtirokida gumondorning uyiga borilganda u ashyoviy dalil tariqasida sumka va uning ichidagilarni topshirdi, – deydi Qorako‘l tumani IIB huzuridagi tergov guruhi tergovchisi, mayor Habib Bozorov. – O‘g‘irlangan narsalar egasiga qaytarildi va ayblanuvchiga tegishli chora ko‘rildi.

## IKKINCHI VOQEA

Qosim Dilmurodov jazo muddatini o‘tab kelgan bo‘lsa-da, bundan o‘ziga to‘g‘ri xulosa chiqarmadi. Halol mehnat qilishga bo‘yni «yor» bermadi. Qolaversa, ichkilikning xumori tutaverdi. U shu ichkilik tufayli ikki marotaba narkologiya dispanserida davolanib chiqqan edi. Biroq «Bu besh kunlik dunyoda o‘ynab-kulganing qoladi» qabilida ish tutdi. Avval do‘kondan qarzga aroq oldi va istirohat bog‘ining chekkarog‘iga o‘tirib, «nafsini» qondirdi. So‘ng mast holatda uyiga ravona bo‘ldi. Ammo qayerdan bo‘lsa ham, pul topish fikri uni g‘ulg‘ulaga solayotgandi.

O‘ylay-o‘ylay, o‘tgan kuni nogiron otasini sartaroshxonaga soch oldirgani olib borgani esiga tushdi. Ayniqsa, sartaroshning tortmasidagi pulning «cho‘g‘i» ko‘z oldidan o‘taverdi.

Borsa, sartaroshxona atrofida hech kim yo‘q, eshigiga osma qulf solingan. Qosim shosha-pisha qulfni tortdi ochilmadi, keyin qattiqroq siltab-siltab tortaverdi. Nihoyat qulf uzilib, eshik ochildi. U darrov tortmani tortdi. Biroq pul yo‘q edi.

Qosim o‘ylanib o‘tirmadi. Darrov sartaroshxonada nima qo‘liga ilinsa, paketga solaverdi. U paketiga soch quritish va soch olish apparatlari, radio, elektr kengaytma hamda bir dona atirni joyladi.

Uyiga kelgan Qosim molxonadagi somon ustiga paketni otdi. So‘ng ota-onasi va xotiniga ham e’tibor bermay, yotog‘iga kirdi. Lekin ertasi kuni uni tuman IIB xodimlari so‘roqlab kelgach, o‘g‘rilik qilganini tan oldi.

## XULOSA O‘RNIDA

Har qanday qing‘ir ishning oxiri voy. O‘g‘rining nafaqat kosasi oqarmaydi, balki o‘zi ham oqlanmaydi. Tekinning teshib chiqishi ham muqarrar. Shu bois har qanday nafs bandalari bir kun kelib, pushaymon bo‘lishadi. So‘nggi pushaymon esa...

**Mirzoqul AHADOV,**
**o‘z muxbirimiz.**
*Buxoro viloyati.*

САЛОМАТЛИК САБОҚЛАРИ

# ОРГАНИЗМНИ ТОЗАЛОВЧИ ДАРМОНДОРИ

**Исмалоқ кўплаб фойдали витаминлар, минераллар ва биологик моддаларни ўзида жо этгани ҳамда оқсилга бой бўлгани учун ҳам жуда қадрланади. У асаб тизимида муаммолар юзага келишига йўл қўймайди, хавфли ўсмаларнинг ривожланиш жараёнини сусайтиради. Ушбу «организмни тозаловчи» ўсимлик ичаклар фаолиятини яхшилаб, вазн ташлашга кўмаклашади. Исмалоқ таркибидаги бетакаротин, лутеолин каби моддалар кўриш қобилиятига ижобий таъсир кўрсатади. У мияда қон айланишини кучайтиради, ақлий фаолиятни яхшилайди, неврологик касалликларнинг олдини олади.**





Исмалоқни ҳам хом, ҳам пиширилган ҳолда истеъмол қилиш мумкин. У темир моддаси миқдори бўйича сабзавотлар орасида биринчи ўринда туради. Бу ўсимлик суяклар учун ҳам жуда фойдали бўлиб, таркибидаги К витамини, марганец, мис, магний, рух, фосфор суяк тўқимасининг ривожланишида ёрдам беради.

Йод танқислигидан азият чекаётган инсонларга исмалоқдан тайёрланган таомлар тавсия этилади. Бу табиий дармондори оғир хасталикларни бошдан кечирганлар, камқонлик, қандли диабет, гастрит, гипертония хасталиклари билан оғриган беморлар учун жуда фойдали. Исмалоқ тетиклантириш, қувватни ошириш, ич суриш, пешоб ҳайдаш хусусиятига эга бўлиб, шамоллашга қарши самарали восита ҳисобланади.

**Гулчеҳра АЗИМОВА тайёрлади.**

# ДЕЗОДОРАНТ ВА АНТИПЕРСПИРАНТ: ФАРҚИ НИМАДА?

**Кунлар исий бошлаши билан баъзилар кўп терлашдан азият чекади. Терлаш ва ёқимсиз ҳид анқишининг олдини олишда асқатадиган воситалардан, айниқса, дезодорант ёки антиперспирантни кўпчилик ишлатади. Шу ўринда уларни фарқлаб олиш мақсадга мувофиқ. Шунда мазкур воситалардан фойдаланганда билиб-билмай терига зарар етказиб қўйишнинг олдини оламиз.**





Дезодорантнинг асосий вазифаси ёқимсиз ҳидни бартараф қилиш, антиперспирантники эса тер ажралишини назорат қилиш ҳисобланади. Агар терлаш билан боғлиқ муаммо бўлмаса, биринчи воситани, аксинча бўлса, иккинчисини ишлатиш тавсия қилинади.

Энг муҳим қоидалардан яна бири – улардан қай тартибда фойдаланишдир.

* Антиперспирант яхшироқ самара бериши учун уни тоза ва қуруқ терига суртиш керак. Шу сабаб ҳам душ қабул қилгандан кейин 15–20 дақиқа ўтиб ишлатиш мақсадга мувофиқ. Душ қабул қилиш имкони бўлмаса, намлантирилган салфеткадан фойдаланинг. Ҳар иккала воситадан ҳам терлаб турганда фойдаланмасликка ҳаракат қилинг.

* Антиперспирант танага сингиб, қуриши учун вақт керак бўлади. Шу сабаб ҳам антиперспирантни кечки душдан кейин суртиш, қолдиғини эса тонгда ювиб ташлаш мақсадга мувофиқ.

* Антиперспирантни дезодорант билан алмаштириб, ҳафтада 2–3 марта ишлатиш, миқдори ортиб кетмаслигига эътибор бериш керак. Ҳаддан ортиқ фойдаланиш аллергик реакциялар ва тери билан боғлиқ бошқа муаммоларга сабаб бўлиши мумкин. Гап шундаки, улар таркибида кундалик фойдаланиш зарарли бўлган триклозан, туз, алюминий ва бошқа кимёвий моддалар бор.

* Дезодорант ва антиперспирантдан фойдалангандан кейин дарҳол кийиниш кийимларда доғ қолишига сабаб бўлади. Агар жуда ҳам шошаётган бўлсангиз, кийинишдан аввал фенни совуқ режимига қўйиб қуритиб олинг. Қуриганидан кейингина кийим кийсангиз бўлади.

* Терлашга қарши воситаларни қайта-қайта, устма-уст сепиб ё суртиб бўлмайди.

* Тананинг терлашга мойил бўлган қисмларини тез-тез хўжалик совуни билан ювиб туриш шарт. Тери нафас олиши учун уйқуга ётишдан аввал теридаги кимёвий воситаларни ювиб ётишни унутманг.

* Шунингдек, ёз мавсумида кийиниш борасида ҳам алоҳида эътиборли бўлиш талаб этилади. Синтетик толали кийимлар терининг ҳаво алмашишига йўл қўймайди ва кўп терлашга сабаб бўлади. Шу боис, айниқса, иссиқ кунларда пахтали матолардан тикилган кенг либослар кийган маъқул.

* Кўп терлаш – гипергидроздан азият чексангиз, дерматолог ёки эндокринолог шифокорга учрагангиз маъқул. Унинг ташхиси сизни ортиқча қўрқувлардан халос этади. Қандли диабет, юқумли касалликлар бор-йўқлиги билан қизиқинг. Ортиқча вазн, қандли диабет билан оғриганлар даволаш чораларини кўришлари билан ортиқча терлаш муаммосидан ҳам халос бўлишади.

Шунингдек, кўп терлаш иммунитет заифлиги ҳамда стресс қўзғатувчи ҳар қандай вазиятда келиб чиқади. Иммунитетни кучайтириш учун қарама-қарши, яъни аввал илиқ, кейин совуқ сувда чўмилиш тавсия этилади. Шунингдек, маврак, эвкалипт ва қарағай мойларини бир томчидан қўшиб аралаштириб, чўмилиш учун фойдаланиладиган гелга қўшиб ишлатиш яхши самара беради. Бу аралашмали гелни бир кунда икки маҳал қўлланг.

Халқ табобатида ҳам терлашга қарши табиий ва безарар воситалар бисёр. Хусусан:

* Чой бутаси дамламаси билан терининг терлаган қисмларини артиш лозим. Ушбу муолажани душ қабул қилгандан сўнг бир кунда икки маҳал бажаринг. Бу терлаш оқибатидаги нохуш ҳидларни кетказишга ва ундан батамом халос бўлишга ёрдам беради.

* Мойчечак гулини қайнаган сувда дамлаб, 20 дақиқа тиндирилади. Ушбу аралашмага икки ошқошиқ лимон шарбати қўшилади ва у билан тананинг терлайдиган қисми артилади. Аралашма, иложи борича, бир кунлик тайёрланиши лозим. Шунингдек, ялпиз аралашмасидан ҳам худди шундай усулда фойдаланиш мумкин.

**Адолат ФАЙЗИЕВА тайёрлади.**

Поздравление

# ВЫПОЛНЯЯ СВОЮ МИССИЮ

**95-летний юбилей – повод не только гордиться упорным трудом, но и для проявления глубокого уважения к тем, кто стоял у истоков создания газеты «Postda-На посту», кто в течение многих лет продолжает выполнять свою миссию.**






Ваша газета является не просто источником информации, а настоящим зеркалом работы ОВД, отражающим достижения и проблемы, ключевые события и реформы, а также ежедневный труд тех, кто обеспечивает безопасность и правопорядок.

Издание уже много лет объективно освещает события, происходящие в органах внутренних дел Узбекистана. Это связующее звено между различными подразделениями и обществом, предоставляющее важную информацию и аналитику всем, кто посвятил жизнь служению закону и защите правопорядка.

Труд и преданность делу сотрудников редакции, несомненно, способствуют укреплению доверия граждан к органам внутренних дел. Подача актуальных материалов, профессионализм и высокая степень ответственности перед обществом делают вашу газету важнейшим инструментом информирования общества, формирования позитивного имиджа органов правоохраны.

Желаем вам здоровья, вдохновения, творческих успехов и дальнейшего развития. Пусть каждый номер будет наполнен актуальной и полезной информацией, а ваша работа всегда будет востребованной и высоко оцененной! Желаем, чтобы газета и в будущем несла свет знаний и правды, продолжала вдохновлять на новые свершения и достижения!

**Коллектив Медиа-центра органов внутренних дел Республики Казахстан.**



# МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ

***(12 – 18 май)***



**Қўй.** Атрофингиздаги баъзи одамлар билан муносабатда муаммолар юзага келиши мумкин. Катта аҳамиятга эга бўлган жиддий лойиҳаларга ҳозирча қўл урмаганингиз маъқул. Аммо бу ҳафта хонадонингизда енгил таъмир ёки катта тозалаш ишларини амалга ошириш учун қулай давр.



**Бузоқ.** Бу ҳафта сиз учун омадли келади. Бундан унумли фойдаланган ҳолда иш жойида ва оила орасидаги муносабатларни яхшилаш ва мустаҳкамлашга ҳаракат қилинг. Яқинларингизга кўпроқ меҳр кўрсатинг, фарзандлар тарбиясига эътиборли бўлинг.



**Эгизаклар.** Барча режа ва ўйлаб қўйилган ишларни амалга ошириш учун омадли давр. Ушбу кунлар давомида ҳаётингизда молиявий, муҳаббат ва дўстлик масалаларида кескин ўзгаришлар кутилмоқда. Дам олиш кунлари ҳар томонлама ҳушёр ва кузатувчан бўлиш талаб этилади.



**Қисқичбақа.** Ушбу кунларда кайфиятингиз кўтаринки бўлиб, қўл урган барча ишларингиз бароридан келади. Бу ҳафта ҳам ишда, ҳам оилада ўзингизни кўрсатиш учун яхши палла. Бироқ бу жараёнда ортиқча ҳис-ҳаяжонга берилмай, имкон борича босиқлик билан иш юритиш лозим.



**Арслон.** Ҳафта бошида ҳорғинлик ва чарчоқ ҳолати сизга ҳамроҳлик қилади. Ўзингизни руҳлантиринг, тасалли беринг ёки бу масалада дўстларингизга мурожаат қилганингиз маъқул. Яқин ва қадрдон инсонлар бу даврда руҳий кўмак бериб, сизни қўллаб-қувватлашади.



**Паризод.** Бу ҳафта давомида куч-ғайрат, имконият ва саломатлик сизнинг фойдангизга хизмат қилади. Бундан унумли ва мақсадли фойдаланиш ўзингизга боғлиқ. Мазкур ҳафта оилавий масалаларни ҳамда анчадан бери ўз ечимини кутаётган муаммоларни ҳал этиш учун қулай даврдир.



**Тарози.** Келгуси ҳафта атрофдаги одамлар орасидаги обрў ва нуфузингизни ошириш, ижодкорлик ва ҳамкорликни ривожлантириш учун мақбулдир. Аввало, ташқи кўриниш ва саломатликка жиддий эътибор қаратинг. Жисмонан оғир вазифалардан имкон қадар узоқлашганингиз маъқул.



**Чаён.** Айни дам ҳаётингизда унумли ва жадал ривожланиш жараёни кетмоқда. Эски қарашларни ўтмишда қолдиринг. Танқидни холислик билан қабул қилинг, йўл-йўлакай хатоларни тузатиб кетишга ўрганинг. Биргаликда самарали ишларни амалга ошириш учун яқинларингиз билан келишиб қарор қабул қилишга одатланинг.



**Ўқотар.** Бу даврда режалаштирилган муҳим иш ва учрашувлар муваффақиятли кечади. Давр билан ҳамнафас бўлиб, мавжуд билимларни янгилари билан уйғунлаштиринг. Хизматдошлар учун умумий манфаатларни кўзловчи инсонга айланинг. Жиззакилик ва таъсирчанликни унутинг.



**Тоғ эчкиси.** Ҳафта давомида жуда кўп ишларни амалга оширишга тўғри келади. Шу сабабдан сизга яхшигина ҳордиқ зарур бўлади. Ҳамкасбларингиз томонидан айтилган баъзи ноўрин гапларга аҳамият қаратманг. Имкон қадар улар билан низога бормасликка ҳаракат қилинг. Дам олиш кунларини севимли ва қадрли инсонлар даврасида ўтказинг.



**Қовға.** Сиз ҳатто энг камгап ва феъли оғир инсонлар билан ҳам тил топиша оласиз. Ушбу жиҳатдан фойдаланган ҳолда ҳар қандай муаммо ва низоларни ҳал қилиш учун мазкур ҳафта кунлари айни муддаодир. Бу даврда ҳам шахсий масалалар, ҳам иш юзасидан кўп жойларда бўлишингиз кутилмоқда.



**Балиқ.** Шу кунларда иш юзасидан бир қанча фойдали таклифлар келиб тушиши мумкин. Уларни қабул қилишдан олдин обдан ўйлаб кўрганингиз маъқул. Фарзандларингиз ҳаётидаги муҳим ҳодисаларни ўтказиб юбормаслик учун улар билан ишончли муносабат ўрнатишга ҳаракат қилинг. Молиявий масалаларда диққат-эътиборли бўлиш тавсия этилади.

# ҲАЁТИМДАГИ ЭНГ МУҲИМ ҚАРОР

**Инсон ҳаётида унинг ҳаётини ва тақдир йўлини белгилайдиган қарорлар бўлади. Мен ҳам бир неча бор ана шундай муҳим қарорлар қабул қилганман. Баъзан адашганман ҳам. Аммо касб танлашда адашмадим, деб ўйлайман. Ҳамма ҳам болалигида жуда кўп орзулар қилади. Уларнинг кўпчилиги ўткинчи ҳавас, ўзгаларга тақлид сифатида намоён бўлиши мумкин. Аммо ҳақиқий ҳаёт йўлини белгилайдиган орзу инсон юрагида мустаҳкам ўрнашар экан.**




Тақдири азал деганлари эҳтимол шудир. Кечагидек эсимда. Талаба эдим. 2013 йили Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети ўзбек филологияси факультетининг 4-босқичида ўқиб юрган кезларим. Талабалар шаҳарчасидаги бекатда автобус кутиб турардим. Одамларнинг газета ва журналлар ўқишга иштиёқи баланд бўлганлиги боис Тошкентда матбуот нашрлари сотиладиган дўкончалар кўп бўларди.

Мен болалигимдан матбуот нашрлари ўқишни яхши кўрардим. Шунинг учун бундай дўкончалар ёнидан ҳеч қачон бефарқ ўтиб кетолмасдим. Ўша куни бекатдаги дўкончада бир газетага кўзим тушди. Унинг илк саҳифасида форма кийган аёлнинг расми бор экан. Негадир юрагим орзиқиб кетди. Тикилиб қарасам, «Postda» газетаси экан.

Дўкончи амакидан шу газетани олиб варақлай бошладим. ИИВ муассислигида нашр этиладиган бу газета менда катта қизиқиш уйғотди. Уни сотиб олиб, талабалар ётоқхонасига қайтдим ва ҳар бир саҳифасини диққат билан ўқиб чиқа бошладим. Шунда ичимда мудраб ётган бир истак бош кўтаргандек бўлди. Катта ҳаёт йўлидаги энг муҳим мақсадимни англагандек эдим гўёки.

Болалигимдан шеър, ҳикоя ва мақолалар ёзиб юрардим. Дорилфунунни битиргач, матбуот соҳасида ишлашни истардим. Ушбу газета мақсадимни янада аниқлаштирди. «Мен Тошкентда қолиб, эгнимга ички ишлар органи ходими формасини кийиб, газетада ишлайман», – дея аҳд қилдим. Бу менинг ҳаётимдаги энг муҳим қарор бўлди.

Ота-онамга ниятимни айтганимда, улар бир оз иккиландилар. Чунки ҳар бир ота-она фарзандининг ўз бағрида бўлишини истайди. Онам ўқитувчи бўлганликлари боис фарзандларидан бири шу касбни давом эттиришини хоҳлардилар, албатта. Аммо улар истагимга қарши чиқмадилар. Аксинча, мени ҳар томонлама қўллаб-қувватладилар.

Университетни тугатгач, оила қуриб, ИИВ Бирлашган таҳририятига бориб иш ўргана бошладим. Ушбу даргоҳдаги малакали ва тажрибали устозлардан ижодий сабоқ олдим. Ижтимоий мавзуларда мақолалар ёзиш мен учун қийин эмасди. Аммо ички ишлар органлари фаолияти ва ҳуқуқий мавзуларда мақолалар ёзишга қийналардим. Таҳририят журналистларидан бу борада кўп нарса ўргандим. Аммо ўша пайтда жамоада бўш ўрин бўлмаганлиги боис устозларим менга ИИВ ҳузуридаги ЖИЭД муассислигида чоп этилаётган «Vaqt-Время» газетасида ишлашни маслаҳат беришди.

Мана, 6 йилдан буён ана шу газета таҳририятида фаолият олиб бормоқдаман. Оддий лейтенантликдан капитан даражасигача эришдим. Мен учун қадрли бўлган «Postda-На посту» газетасида ҳам мақолаларим чоп этиб борилади. Ҳамон ушбу даргоҳдаги устозларимдан ҳам ижодий, ҳам ҳаётий масалаларда маслаҳатлар олиб тураман. Бунинг учун ҳаммаларидан бир умр миннатдорман.

«Postda-На посту» – отахон газета. Севимли нашр чоп этилаётганлигига яқинда 95 йил тўлади. Бу салкам бир аср дегани. Газета ижодкорлари замон билан ҳамнафас. Шунинг учун ушбу нашр муштарийлар кўнглидан жой олган. Фурсатдан фойдаланиб ИИВ Бирлашган таҳририяти жамоасини тарихий сана билан қутлайман. Уларга янгидан-янги ижодий ютуқлар тилайман.

**Хадича ЎТАЕВА,**
**«Vaqt-Время» газетаси мухбири, капитан.**

## МОЗИЙГА БИР НАЗАР





**Суратларда:** турли йилларда таҳририятимизда фаолият кўрсатган фидойи ходимлар: (чапдаги сурат) **муҳаррир ўринбосари Ғайрат Болтабоев, махсус мухбир Муҳаббат Ибрагимова, масъул котиб Сиддиқхўжа Сулаймонхўжаев ва бўлим мудири Раҳмонали Қосимов;** (ўнгдаги сурат) **кадрлар бўлими мудири Революция Ҳасанова** (чапда) ва мусаҳҳиҳ **Марғуба Акрамова.**

**MUASSIS:**
**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI**

**Bosh muharrir**
polkovnik
Bernora SADIKOVA

**Mas’ul kotib**
Erkin SATTOROV

**Bosh muharrir o‘rinbosarlari**
podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV
mayor Aziza BOHODIROVA

**Sahifalovchilar**
Zokir BOLTAYEV
Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

**Navbatchilar**
Abror POYONOV
Radik TUMPAROV

**Fotomuxbir**
Abu KENJAYEV
Ikrom HASANOV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozma va suratlar egasiga qaytarilmaydi. Nashrimizdan ko‘chirib bosilganda manba ko‘rsatilishi shart. Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

**TELEFONLAR:**
71-231-33-88;

**Obuna masalalari bo‘yicha:**
71-231-38-74;
97-420-89-24

**Web-site:** www.postda.uz
**E-mail:** info@postda.uz

ISSN 2010-5355
9 772010 535001

Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.
Bank kodi 00014.
O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi g‘aznachiligi.
Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko‘chasi $1^{A}$-uy.

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Buyurtma №1219.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma taboq. 45502 nusxada chop etildi.
**Obuna raqamlari:**
Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

**MANZILIMIZ: 100070, Toshkent shahri, Shota Rustaveli 1-berk ko‘chasi 9-uy.**